

ISSN 3060-4850



CARDIOLOGY OF UZBEKISTAN

2025 № 2 (4)



O'ZBEKISTON KARDIOLOGIYASI



Association of Cardiologists of the Republic of Uzbekistan
O'zbekiston Respublikasi Kardiologlar Assotsiatsiyasi
Ассоциация кардиологов Республики Узбекистан



CARDIOLOGY OF UZBEKISTAN

Scientific-practical journal
Founded in 2006

№2/2025
(4)

O'ZBEKISTON KARDIOLOGIYASI

Ilmiy-amaliy jurnal
2006-yilda tashkil etilgan

№ 2 / 2025
(4)

Founder- Association of Cardiologists of Uzbekistan

2025 №2 (4)

Address:

Uzbekistan, Tashkent, 100052,
Mirzo-Ulugbek district, st. Osiyo, 4.
Phones: 8–998 (71) 237–38–16, 8–998 (71) 237–33–67
Fax: (71) 234–16–67
Website: <https://cardiojournal.uz>
E-mail: info@cardiojournal.uz

Editorial Board:

Editor-in-chief: [Kurbanov Ravshanbek Davletovich](#) -
(Tashkent, 100052, Uzbekistan) [Wikipedia](#), [Scopus](#), [Web of Science](#).

Deputy editor-in-chief: [Alexander Borisovich Shek](#) -
(Tashkent, 100052, Uzbekistan) [Scopus](#), [Web of Science](#).

Deputy editor-in-chief: [Khurshid Gayratovich Fozilov](#) -
(Tashkent, 100052, Uzbekistan) [Scopus](#), [Web of Science](#).

Executive Secretary: [Nigora Zainutdinovna Srozhidinova](#) -
(Tashkent, 100052, Uzbekistan) [Scopus](#), [Web of Science](#), [ORCID](#).

Abdullaev Timur Atanazarovich - (Tashkent, Uzbekistan) [Scopus](#), [Web of Science](#).

Alavi Bahrom Aniskhanovich - (Tashkent, Uzbekistan) [Scopus](#), [Web of Science](#).

Grinstein Yuri Isaevich - (Krasnoyarsk, Russian

Federation) [Orcid](#), [Scopus](#), [Web of Science](#).

Zakirov Nodir Uzuyevich - (Tashkent, Uzbekistan) [Orcid](#), [Scopus](#), [Web of Science](#).

Mirjamol Mirumarovich Zufarov - (Tashkent, Uzbekistan) [Orcid](#), [Scopus](#).

Kurbanov Nurali Abdurakhmanovich - (Jizzakh, Uzbekistan) [Orcid](#).

Lopatin Yuri Mikhailovich - (Volgograd, Russian Federation) [Orcid](#), [Scopus](#), [Web of Science](#).

Mamasoliev Nematjon Solievich - (Andijan, Uzbekistan) [Orcid](#).

Nurillayeva Nargiza Mukhtarkhanovna - (Tashkent, Uzbekistan) [Scopus](#), [Web of Science](#).

Sagirov Anvar Midhatovich - (Urgench, Uzbekistan)

Tashenbayeva Eleonora Negmatovna - (Samarkand, Uzbekistan) [Orcid](#), [Scopus](#), [Web of Science](#).

Tulaboeva Gavhar Mirakbarovna - (Tashkent, Uzbekistan) [Orcid](#), [Scopus](#), [Web of Science](#).

Khamidullayeva Gulnoz Abdusattarovna - (Tashkent, Uzbekistan) [Orcid](#).

Khasanov Niyaz Rustemovich - (Kazan, Russian Federation) [Orcid](#).

Alieva Rano Burkhanovna - (Tashkent, Uzbekistan). [Orcid](#), [Scopus](#), [Web of Science](#).

ISSN 3060-4850

Выражаем искреннюю признательность всем нашим коллегам в Узбекистане и странах СНГ, принимавшим активное участие в выпуске номера журнала.

Article

Posterior perikardiotomiyaning ishlayotgan yurakdagi koronar arteriyalarni shuntlash (OPCAB) amaliyotidan keyingi supraventrikulyar aritmiya xavfiga ta'siri

O.O. Jabbarov¹ , G.U. Mullabaeva^{*1} , I.M. Sharipov¹ , X.G. Fozilov² 

¹ Kam invaziv kardiojarrohlik bo'limi, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Toshkent, 100052, O'zbekiston

² Rentgen-endovaskulyar xirurgiya bo'limi, Respublika ixtisoslashgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent, 100052, O'zbekiston
candid1994wow@mail.ru (O.J.), guzal-m@inbox.ru (G.M.), isalmsharipov@mail.ru (I.Sh.),
hurshidfozilov1976@icloud.com (X.F.)

* Correspondence: guzal-m@inbox.ru; Tel.: +998 97 4556334 (G.M.)

Annotatsiya:

Maqsad. Koronar arteriyalarni ishlab turgan yurakda shuntlash amaliyotini o'tkazadigan bemorlarda jarrohlik amaliyotidan keyingi supraventrikulyar aritmiya xavfiga ta'siri bilan kasallanishni kamaytirishda Posterior perikardiotomiya amaliyotini samaradorligini baholash.

Materiallar va usullar. Bu ilmiy tadqiqot Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida amalga oshirildi. Tadqiqotda yurak ishemik kasalligi bilan og'rigan va jarrohlik amaliyotiga ko'rsatma bo'lgan 220 ta bemor ishtirok etdi. Bemorlarning o'rtacha yoshi 58,6±7,2 yosh, tadqiqotda qatnashgan bemorlarning 31tasi ayol va qolgan 189 tasi erkak. Randomizatsiya usulida bemorlar 2 guruhga bo'lindi. Birinchi guruhdagi 110 ta bemorlarga posterior perikardiotomiya amaliyoti bajarildi, ikkinchi guruhdagi 110 ta bemorlarga bu amaliyot bajarilmadi. Barcha bemorlar operatsiyadan 5 kun va 24 soat oldin Xolter EKG monitoringi (XM EKG) o'tkazildi.

Natijalar. Monitoring natijalariga ko'ra, 48 ta bemorda koronar arteriyalarni ishlab turgan yurakda shuntlash amaliyotidan keyingi BF rivojlandi, bu umumiy bemorlarning 21,8% ni tashkil etdi. Klinik va anamnestik ko'rsatkichlarni tahlil qilish quyidagilarni aniqladi. Guruhlar yoshi va jinsi bo'yicha sezilarli darajada farq qilmadi (1-jadval). Gipertenziya JAKBF bo'lgan guruhda tez-tez qayd etilgan va JAKBF bo'lmagan guruhda 44,3% ga nisbatan 95,1% ni tashkil etgan ($X^2 = 29,9$; $r < 0,001$). Shuningdek, asosiy guruhdagi bemorlar JAKBF bo'lmagan guruhga qaraganda semizlik kasalligi bilan ko'proq og'rigan ($X^2 = 7,1$; $r = 0,008$). Qandli diabet (QD) ham JAKBF bilan og'rigan bemorlarda sezilarli darajada tez-tez uchraydi, 30,5% ga nisbatan 68,5% ($X^2 = 17$; $r < 0,001$).

Xulosa. Bizning natijalarimizga ko'ra, bemorlarning 21.8% ishlab turgan yurakda AKSH amaliyotidan keyingi JAKBF kuzatilgan. Buning asosiy sabablari bemorning yoshi, uning yuragining chap bo'lmachasining kattalashganligi, yondosh kasalliklari va miyokarddagi fibroz sababdir. Posterior perikardiotomiya supraventrikulyar aritmiyani sezilarli darajada kamaytiradi degan xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, yurak tamponadasi, tromboemboliya asoratlari, intensiv terapiya bo'limi va reabilitatsiya bo'limida yotoq kunlarining uzaytirilishini kamaytiradi va shu bilan klinika resurslarini tejashga tasir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Koronar arteriyalarni ishlab turgan yurakda shuntlash amaliyoti (AKSH-off pump), jarrohlik amaliyotidan keyingi bo'lmachalar fibrillyatsiyasi (JAKBF), Xolter elektrokardiografiyasi monitoringi (XM EKG), qandli diabet (QD).

Iqtibos: O.O. Jabbarov, G.U. Mullabaeva, I.M.Sharipov, X.G. Fozilov. Posterior perikardiotomiyaning ishlayotgan yurakdagi koronar arteriyalarni shuntlash (OPCAB) amaliyotidan keyingi supraventrikulyar aritmiya xavfiga ta'siri. 2025, 2,4, 1.
<https://doi.org/10.70626/cardiouz-2025-2-00060>

Olingan: 10.10.2025

Tuzatilgan: 18.10.2025

Qabul qilingan: 15.11.2025

Nashr qilingan: 01.12.2025

Copyright: © 2025 by the authors.

Submitted to for possible open access

publication under the terms and

conditions of the Creative Commons

Attribution (CC BY) license ([https://creativecommons.org/licenses/by/](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

[https://creativecommons.org/licenses/by/](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

4.0/).

The Effect of Posterior Pericardiotomy on the Risk of Supraventricular Arrhythmias after Off-Pump Coronary Artery Bypass Grafting (OPCABG)

Ogabek O.Zhabbarov ¹ , Guzal U.Mullabaeva ^{*1} , Islam M.Sharipov ¹ , Khurshid G.Fozilov ² 

¹ Department of Minimally Invasive Cardiac Surgery, Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Cardiology, Tashkent, 100052, Uzbekistan

² Department of X-ray Endovascular Surgery, Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Cardiology, Tashkent, 100052, Uzbekistan

candid1994wow@mail.ru (O.zh.), guzal-m@inbox.ru (G.M.), isalmsharipov@mail.ru (I.Sh.), hurshidfozilov1976@icloud.com (Kh.F)

Abstract:

Aim. To evaluate the effectiveness of posterior pericardiotomy in reducing the risk of postoperative supraventricular arrhythmias in patients who underwent off-pump coronary artery bypass grafting. **Materials and methods.** This study was conducted at the Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Cardiology. The study included 220 patients with coronary artery disease who had indications for surgical intervention. The average age of the patients was 58,6±7,2years, including 31 women and 189 men. The patients were randomly divided into 2 groups. 110 patients in the first group underwent posterior pericardiotomy, and 110 patients in the second group did not undergo this procedure. All patients underwent Holter ECG monitoring (HMECG) 5 days and 24 hours before the surgery.

Results. According to the monitoring results, 48 patients developed POAF after off-pump coronary artery bypass grafting, which accounted for 21.8% of the total number of patients. Analysis of clinical and anamnestic parameters showed the following. The groups did not differ significantly in age and gender (Table 1). Arterial hypertension was more common in the group with POAF - 95.1% compared to 44.3% in the group without POAF ($X^2 = 29.9$; $p < 0.001$). Also, patients in the main group were more likely to be obese than in the group without POAF ($X^2 = 7.1$; $p = 0.008$). Diabetes mellitus (DM) was also significantly more common in patients with POAF - 68.5% compared to 30.5% ($X^2 = 17$; $p < 0.001$).

Conclusion. According to our results, 21.8% of patients after off-pump CABG had POAF. The main reasons for this were the patient's age, left atrial dilation, comorbidities, and myocardial fibrosis. It can be concluded that posterior pericardiotomy significantly reduces the incidence of supraventricular arrhythmias. It also reduces the incidence of cardiac tamponade, thromboembolic complications, and the length of stay in the intensive care unit and rehabilitation unit, which saves hospital resources.

Keywords: off-pump coronary artery bypass grafting (OPCABG), postoperative atrial fibrillation (POAF), Holter monitoring electrocardiography (HM ECG), diabetes mellitus (DM).

Kirish

Jarrohlik amaliyotidan keyingi yurak ritmining buzilishi keng tarqalgan holat. Bu yurak ritmining buzilishlari ichida eng keng tarqalgani JAKBF hisoblanadi. Uning uchrashi 17-47% gacha bo'lib yoshi keksa bemorlarda ko'proq uchraydi. (Leitch 1990). Koronar arteriyalarni ishlab turgan yurakda shuntlash amaliyotidan so'ng uning uchrashi 30 dan 40% gacha o'zgarib turadi, yurak klapanlarini almashtirilgandan yoki kombinatsiyalangan jarrohlik amaliyotlaridan keyin 50% gacha ko'tariladi. Odatda jarrohlik amaliyotidan keyingi 5 kun ichida paydo bo'ladi, operatsiyadan keyingi 2-kun eng yuqori darajada uchraydi. Garchi bu odatda qo'rqinchli muammo bo'lib ko'rinmasada va oson yechim topish mumkunligiga qaramasdan, u sezilarli kasallanish va o'lim bilan hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin. Bu kasallik aniqlanganda, u yurak ritmini nazorat qiluvchi dorilar, antikoagulyantlar va elektrokardioversiyaning turli kombinatsiyalari bilan qo'shimcha davolashni talab qiladi. Yuqorida sanab o'tilganlarning barchasi e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydigan salbiy ta'sirga ega. Buning natijasida JAKBF bemorlarning kasalxonada qolish davrini uzaytiradi va tibbiy xarajatlarni oshiradi [1,4]. Ushbu epizodlar gemodinamik beqarorlik, insult xavfini oshirish va intensiv terapiya bo'limida

qolish muddatini uzaytirish kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Kasalxonada uzoq vaqt qolish bilan JAKBF kasalxona resurslariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [2]. Jarrohlik amaliyotining turli xususiyatlari ushbu xavfga qanday hissa qo'shishi haqidagi mavjud malumotlar samarali prognostik va profilaktika choralari ishlab chiqishni cheklaydi [3]. Paroksizmal va surunkali bo'lmachalar fibrillyatsiyasi, ayniqsa keksa bemorlarda insult xavfini sezilarli darajada oshirishi ko'rsatilgan (Wolf, 1991). JAKBF yuzaga keltiradigan eng xafli asoratlardan biri bu tromboemboliyadir, insult xavfini yuzaga keltiruvchi boshqa sabablar ham mavjud ekanligini boshqa olimlar ta'kidlashyapti (Whitlock, 2009), shu jumladan: ateroskleroz (SPAF tadqiqot qo'mitasi, 1998), yallig'lanish holatlari, endotelial disfunktsiya (Guazzi, 2002), giperkoagulyatsion holat (Watson, 2009) buning yakkol misolidir. Yurak jarrohligidan so'ng operatsiyadan keyingi insultning past darajasi va polietologiyasini hisobga olgan holda, bitta tadqiqotda bo'lmachalar fibrillatsiyani oldini olishning choralari aniq ko'rsatish qiyin. Operatsiyadan keyingi bo'lmachalar fibrillatsiyani oldini olish kardiojarrohlarning orasida keng tarqalgan amaliyot bo'lib, yuqorida tavsiflangan asoratlarning natijalarini oldini olishga qaratilgan [4]. So'nggi paytlarda perikardda suyuqlikni yig'ilishi keng tarqalgan noxush holatlardan biri hisoblanadi. Jarrohlik amaliyotidan keyingi perikardda suyuqlik yig'ilishi darajasi kardiojarrohlardan keyin 85% ga yetishi mumkin. Ko'pincha yig'ilgan suyuqlik miqdori oz va kichik hajmga ega bo'lishi mumkin, lekin juda katta miqdordagi suyuqlik yurakni to'ldirishga xalaqit berishi mumkin, bu esa tamponadani keltirib chiqarishi mumkin. Operatsiyadan keyingi drenaj trubkalari oldingi perikard bo'shlig'idagi suyuqlikni olib chiqishga yordam beradi, lekin perikardning orqa qismidan suyuqlikni olib chiqa olmaydi. Buning natijasida perikard orqa qismida paydo bo'lgan mahalliy tromb chap bo'lmachaning mexanik qitqlashi natijasida bo'lmachalar fibrillyatsiyasini keltirib chiqaradi. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Posterior perikardiotomiya amaliyoti yordamida chap plevra bo'shlig'iga qarab fenestratsiya hosil qilish mumkin, natijada perikardda suyuqlik yig'ilishini kamaytirishga va JAKBF paydo bo'lish xavfini kamaytirishga olib keladi. Yurak operatsiyasidan keyin postperikardiotom sindromi va yurak tamponadasining oldini olishda profilaktika va dori-darmonlarni davolash usullarining yetarli arsenalini hisobga olgan holda, ushbu asoratlarning optimal, samarali va xavfsiz oldini olish usullarini topish muhimdir. So'nggi yigirma yil ichida yurak tamponadasi va JAKBF ning oldini olish uchun posterior perikardiotomiya kabi oddiy interoperativ usuldan foydalanish faol muhokama qilindi. Ko'pgina olimlar posterior perikardiotomiyaning afzalligini da'vo qilmoqdalar, bu qarorning sababi shundaki, plevra bo'shliqlarining punktsiyasi yurak jarrohligidan keyingi kechki bosqichlarda perikardial punktsiyadan ko'ra oson va xavfsiz. Ko'pgina mahalliy kardiojarrohlarning ushbu usulni amalda faol qo'llashdan bosh tortishdi, buning sababi qizilo'ngach va difragmal nervni tez-tez shikastlanishi, shuningdek, teshikni yopish vaqti to'g'risida malumotlar yo'qligini vaj qilib ko'rsatishadi. Ko'pchilik olimlarning ta'kidlashicha ushbu uslub koronar arteriya jarrohligidan keyingi erta va o'rta muddatli davrlarga ta'sirini o'rganish muhim deb hisoblanadi [5].

Materiallar va usullar

Ushbu istiqbolli va bir markazli tadqiqot Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida (Toshkent, O'zbekiston) o'tkazildi. Ushbu tadqiqot 2022-2025 yillarda to'liq tasodifiy va ko'r-ko'rona bemorlarni tanlash orqali o'tkazildi. Jarrohlik amaliyotidan keyingi supraventrikulyar yurak ritm buzilishlariga posterior perikardiotomiyani ta'sirini o'rganish tadqiqoti 220 ta yurak ishemik kasalligi bor va jarrohlik amaliyotiga ko'rsatmasi bor bemorlarni o'z ichiga oldi. Bemorlarning o'rtacha yoshi $58,6 \pm 7,2$ yosh, 31 ayol va 189 erkak. Tadqiqotga qo'shilish mezonlari: ishlab turgan yurakda koronar shunlash amaliyotiga ko'rsatmasi bor bemorlar va bemorlarning tadqiqotda qatnashish uchun yozma roziligi. Randomizatsiya usulida barcha bemorlar operatsiya davomida posterior perikardiotomiya (PPT) qo'shilishiga qarab 2 guruhga bo'lingan: I guruh - PPT o'tkazilgan 110 bemor, II guruh (nazorat) - PPT bajarilmagan 110 bemor. Istisno mezonlari: MIDCABG yoki MICS CABG, perikard va plevra bo'shlig'idagi og'ir bitishmalar, takroriy yurak aralashuvlari, bemorning tadqiqotda ishtirok etishdan bosh tortishi, 80 yoshdan oshgan bemorlar, chap qorinchaning anevrizmasi va trombozi, yurak klapanidagi kasalliklar, og'ir surunkali buyrak kasalligi, qorinchalar va supraventrikulyar yurak ritmining buzilishi tufayli antiaritmik dorilar iste'mol qilganlar, hamda bo'lmachalar fibrillyatsiyasi tarixiga ega bo'lgan bemorlar. Barcha bemorlarga operatsiyadan 5 kun va 24 soat oldin Xolter EKG monitoringi (XM EKG) o'tkazildi. Quyidagi instrumental va laboratoriya tekshiruvlari jarrohlik amaliyotidan oldin va so'ng o'tkazildi: qonning umumiy tahlili, koagulogramma, yallig'lanish belgilari (C-reaktiv oqsil, Anti-O-streptolizin, Interleukin-6,

Revmatoid omil), biokimyoviy testlar, NT-proBNP, elektrolitlar, exokardiyografiya va ko'krak qafasi rentgenogrammasi. Barcha bemorlarga ishlab turgan yurakda AKSH amaliyoti bajarildi. Jarrohlikdan so'ng barcha bemorlar intensiv terapiya bo'limida yotqizildi, u yerda yurak ritmi krovat yonidagi yozuv monitori yordamida nazorat qilindi, so'ngra 3- va 5-kunlarda bemorlarga XM EKG o'tkazildi. Agar BF yoki BT aniqlangan bo'lsa, bemorlarga elektr yoki dori vositalari yordamida kardioversiya o'tkazildi. Qisqa muddatli natijalar: shifoxonadagi o'lim, qon tomirlarining o'tkir trombozi, buyrak etishmovchiligi, operatsiyadan keyingi bir oy ichida qayta kasalxonaga yotqizish, 6 oylik kuzatuv davomida o'lim darajasi, o'tkir miokard infarkti va insult holatlari, shuningdek revaskulyarizatsiya bo'yicha takroriy operatsiyalar (AKSH yoki stentlash) baholandi [6].

Statistik malumotlarni qayta ishlash

Statistik ishlov berish "Microsoft Excel" elektron jadvallari va "Static for Windows" 10 dasturlari yordamida amalga oshirildi. Ishlab turgan yurakda AKSh amaliyotidan so'ng operatsiyadan keyingi bo'lmachalar fibrillyatsiyasi rivojlanishiga tasir qiluvchi omillarni baholash uchun ikkilik logistik regressiya tahlili o'tkazildi va Katz usuli yordamida xavf va kofitsent nisbatini hisoblash qo'llanildi. O'rtacha qiymatlarni solishtirishda Student t-testini hisoblash qo'llanildi.

Natijalar

JAKBF rivojlanishining asosiy sababi shundaki, operatsiyadan keyin perikardning qiyshiq sinusida to'plangan suyuqlik, chap bo'lmachaning orqa devorini qitiqlashi hisobiga yuzaga keladi. O'rnatilgan drenaj tizimi bu hududdan qonni evakuatsiya qila olmaydi.

Table 1. Basic clinical and functional indicators of the studied groups

Jadval 1. O'rganilayotgan guruhlarining asosiy klinik va funksional ko'rsatkichlari

Parametrlar	PPT qilingan bemorlar (asosiy guruh n=110)	PPT qilinmagan bemorlar (nazoratdagi guruh n=110)	Ishonchlilik: r; OR(95%CI)
Yosh	64,4±7,2	65±4,8	p=0.05
Jinsi(e/a)	76/34	80/30	ishonchli emas
TVI, kg/m2	28,85±4,06	29,03±3,85	p=0.03
Gipertoniya kasalligi	59(53.6%)	62(56.9%)	OR=0.952[0.611-1.483]
Infarktdan keyingi kardioskleroz	35(32,5%)	44(39,8%)	OR=0.708[0.420-1.195]
Semizlik	36(32,5%)	37(34,1%)	OR=0.941[0.553-1.600]
Qandli diabet	40(36,5%)	43(39%)	OR=0.901[0.538-1.501]
O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi	45(40,6%)	48(43,9%)	OR=0.875[0.528-1.452]
Surunkali buyrak kasalligi	88(79,7%)	91(83%)	OR=0.807[0.424-1.535]
Oldingi revaskulyarizatsiya amaliyotlari (AKSH yoki stentlash)	4	6	ishonchli emas
ChQOF,%	44,6±3,8	45,3±4,2	p=0.90
MI	40(36%)	43(39%)	OR=0.890[0.516-1.536]

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra (jadval 1.): tadqiqotda ishtirok etayotgan bemorlarning aksariyatida gipertoniya kasalligi mavjudligi 121(55%)ta, qolaversa o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi 93(42.2%) ta bemorda va surunkali buyrak kasalliklari 179(81.3%) ta bemorda aniqlangan. Qolgan kursatkichlar bo'yicha o'rganilayotgan guruhlarda sezilarli farq aniqlanmadi. Jarrohlik amaliyotidan keyingi XM EKG tadqiqoti natijalariga ko'ra JAKBF umumiy hisobda 48 ta bemorda rivojlangan. Shulardan 14(13%) tasi birinchi guruhdagi bemorlar, qolgan

34(31%)tasi ikkinchi guruh vakillari (OR=0.326;CI 95%[0.163-0.651]). Asosiy va nazoratdagi guruhlar XM EKG va ExoKG ko'rsatkichlari bo'yicha o'zaro farq aniqlanmadi.

Table 2. Demographic data of patients with and without preoperative PAH pulmonary arterial hypertension

Jadval 2. Jarrohlik amaliyotidan oldingi JAKBF bor bo'lgan va yo'q bo'lgan bemorlarning demografik ma'lumotlari

Parametrlar	BF bor guruh (n=48)	BF yo'q guruh (n=172)	Ishonchlilik: r; X ² ; OR(95%CI)
Yosh	63,1±4,6	54,5±3,4	r=0.13
Jinsi(e/a)	33/15	138/34	0,9; p>0,05
Gipertoniya kasalligi	45(95%)	76(44%)	29,9; r<0,001
Infarktdan keyingi kardioskleroz	22(46%)	58(33%)	2,2; p>0,05
Semizlik	24(50%)	49(29%)	7,1; r=0,008
Qandli diabet	33(68%)	51(30%)	17; r<0,001
O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi	12(26%)	81(43,9%)	5,8; r=0,01
Surunkali buyrak kasalligi	37 (78,0%)	142 (82%)	0,14; p>0,05
2	19 (52,4%)	98 (69,0%)	2,7; r=0,09
3a	10 (28,5%)	35 (24,6%)	0,16; z=0,68
3b	8 (19,0%)	9 (6,4%)	4,04; r=0,04
O'BMQAB	10(22%)	27(16%)	0,73; p>0,05
Oldingi revaskulyarizatsiya amaliyotlari(AKSH yoki stentlash)	8(17%)	19(11%)	0,9; r=0,34
EUROSCORE shkalasi bo'yicha xavf ko'rsatkichi	4.1 ±1.7	3.8 ±2	ishonchli emas
Bir tomirli zararlanish	4(8.3%)	5(3%)	1,6; r=0,11
Ko'p tomirli zararlanish	44(92%)	167(97%)	1,8; r=0,16
To'liq revaskulyarizatsiya	46(96%)	167(97%)	1,9; r=0,18

Klinik va anamnestik parametrlarni tahlil qilish natijasida quyidagilar aniqlandi: o'rganilayotgan guruhlardagi bemorlar yoshi va jinsi bo'yicha deyarli farq qilmadi (2-jadval). JAKBF bo'lgan va bo'lmagan bemorlar guruhlarini taqqoslaganda, biz quyidagi natijalarga erishdik: JAKBF guruhidagi bemorlar ko'proq gipertoniya kasalligi bilan og'rikan, JAKBF bo'lmagan guruhga qaraganda 95% ga nisbatan 44% ($X^2 = 29,9$; $r<0,001$). Shuningdek, JAKBF bo'lgan bemorlar guruhidagi bemorlar, JAKBF bo'lmagan guruhdagi bemorlarga qaraganda sezilarli darajada ko'proq semizlikga ega ($X^2 = 7,1$; $r = 0,008$). Qandli diabet (QD) ham JAKBF bilan og'rikan bemorlarda sezilarli darajada tez-tez uchraydi - 68,5%, JAKBF yo'q guruhga nisbatan 30% ($X^2 = 17$; $r<0,001$). Boshqa komorbid holatlardan O'SOKning mavjudligi JAKBF rivojlanishida muhim ahamiyatga ega edi. Bu kasallik JAKBF bo'lmagan guruhdagi bemorlarning 47,3% ga ta'sir qilgan, JAKBF bo'lgan guruhda esa - 26,2% ($X^2 = 5,8$; $r = 0,01$). Surunkali buyrak kasalligi (SBK) va JAKBF rivojlanish xavfi o'rtasidagi munosabatni o'rganilganda, biz JAKBF guruhida SBK 3b bosqichi bo'lgan bemorlar ustunlik qilganini aniqladik - 19,0%, JAKBF bo'lmagan guruhga nisbatan 6,4% ($X^2 = 4,04$; $r = 0,04$). Qolaversa biz guruhlar o'rtasidagi taqqoslashni jarrohlik amaliyoti va reanimatsiya davrlarida ham o'rganib chiqdik.

Table 3. The course of the surgical period in the studied groups**Jadval 3.** O'rganilayotgan guruhlarda jarrohlik amaliyoti davrining kechishi

Ko'rsatkichlar	BF bor guruh (n=48)	BF yo'q guruh (n=172)	Ishonchlilik
Jarrohlik amaliyotining davomiyligi, daqiqa	215,9±25,2	209,4±27,5	ishonchli emas
Sun'iy nafas berish davomiyligi, daqiqa	220±30,6	217,2±28,1	ishonchli emas
Qon ketishi, ml	381,9±19,6	392,8±23,4	ishonchli emas
O'rnatilgan shuntlarning o'rtacha soni	3,2 [1-5]	3,5 [1-5]	ishonchli emas
Sun'iy qon aylanish apparatiga o'tish holatlari	0	0	ishonchli emas
Yurakning mexanik qo'llovchi uskunalarni ulash (EKMO yoki IABP)	0	0	ishonchli emas

Jarrohlik davrining xususiyatlarini o'rganish davomida taqqoslangan guruhlar o'rtasida ishonchli farqlar aniqlamadi. Shuningdek, ikkala guruhda ham ishlab turgan yurakda AKSH amaliyoti bajarilgan. Shuningdek, sun'iy qon aylanishiga o'tish va yurak uchun mexanik yordamni ulash hech bir holatda qayd etilmagan (3-jadval). Bemorlarning jarrohlikdan keyingi davrida, aynan reanimatsiya davrida o'rganilayotgan guruhlarimiz o'rtasida ishonchli farqlar yuzaga keldi.

Table 4. Early postoperative indicators in the intensive care unit of the examined groups**Jadval 4.** Tekshirilayotgan guruhlarning reanimatsiya bo'limida jarrohlik amaliyotidan keyingi erta davr ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	BF bor guruh (n=48)	BF yo'k guruh (n=172)	Ishonchlilik
Suniy nafas tizimi davomiyligi, daqiqa	320±35,3	260±68,6	0,437
Drenaj trubkalaridan chiqqan qon miqdori, ml.	716±357	680±314	0,96
Kardiotoniklar davomiyligi, soat.	32,3±4,5	24,2±3,6	0,16
Bemorlarning reanimatsiyada davolanish davomiyligi, soat	62,4±14,4	50,7±11,2	0,52
Qayta jarroxlik amaliyotiga olish (Qon ketishi, shuntlarning o'tkir trombozi sababli)	3	2	OR=1.512[0.248-9.214]
Jarroxlik amaliyotidan keyingi erta davrdagi O'BMQAB	3	1	OR=3.050[0.313-29.735]
Shifoxonadagi o'lim holati	0	0	nd

Umumiy shifoxonadagi davolanish davomiyligi	14,5±2,1	8,35±2,0	0,044
Jarrohlik amaliyotidan keyingi davolanish davri davomiyligi	10,13±2,88	7,4±1,85	0.425

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra (4-jadval), JAKBF bilan og'riqan bemorlar guruhida sun'iy ventilyatsiya davomiyligi bo'yicha, JAKBF bo'lmagan guruhga qaraganda $320 \pm 35,3$ uzoqroq davom etganini ko'rishimiz mumkin $260 \pm 68,6$ ($r=0,437$). JAKBF guruhida kardiotonik qo'llab-quvvatlash davomiyligi ham farq qildi: JAKBF guruhida kardiotonik qo'llab-quvvatlash davomiyligi $32,3 \pm 4,5$, JAKBF bo'lmagan guruhda $24,2 \pm 3,6$ ($r>0,05$). Reanimatsiyada davolanish davomiyligi bo'yicha JAKBF bo'lgan guruh $62,4 \pm 14,4$ ustunlik qildi, ammo aksincha, JAKBF bo'lmagan guruh bemorlarida bu ko'rsatkich biroz pastroq $50,7 \pm 11,2$ edi. Guruhlar, shuningdek, kasalxona davrining davomiyligi (yotoq kunlari) (JAKBF bo'lgan $14,5 \pm 2,1$ guruh, JAKBF bo'lmagan guruh $8,35 \pm 2,0$ $r = 0,044$) va operatsiyadan keyingi bemorlarni kuzatish davrida (JAKBF bo'lmagan guruh $10,13 \pm 2,88$, JAKBF bo'lmagan guruh $7,4 \pm 1,85$ $r = 0,425$) farq qildi. Shuni ta'kidlash kerakki, shifoxona davrida ushbu bemorlarda operatsiyadan keyin o'lim holati qayd etilmadi.

Munozara

Bizning tadqiqotimizda JAKBF guruhidagi bemorlarda ularning ko'rsatkichlari JAKBF bo'lmagan bemorlarga qaraganda yuqori bo'lgan, monitoring davomida tadqiqot guruhlarida yallig'lanish jarayonining vositachilari aniqlanganligi isbotlangan. Bu yallig'lanish markyorlari bo'lmachalarda qayta kirish (re-entry) mexanizmini yaratishga yordam beradigan nazariyani isbotlaydi [7,8]. JAKBF rivojlanishiga hissa qo'shadigan omillar orasida xorijiy mualliflarning fikrlarini hisobga olgan holda, JAKBF rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim omil bu bemorlarning yoshi hisoblanadi. Mualliflarning fikrlari bizning tadqiqotimiz bilan mos keladi. JAKBF guruhidagi o'rtacha yosh JAKBF bo'lmagan guruhga qaraganda yuqori edi [9] Bundan tashqari, surunkali buyrak kasalligi bo'lgan bemorlarda JAKBF sezilarli darajada tez-tez kuzatilgan [10]. Shuningdek, bazi qon parametrlari bo'yicha bizning tadqiqotimiz natijalari boshqa mualliflarning natijalariga o'xshash edi. Misol uchun, miya natriuretik peptidi konsentratsiyasi JAKBF rivojlangan guruhda nisbatan yuqori ekanligini, JAKBFsiz guruhda esa past ekanligini ko'rishimiz mumkin [11].

Biz bu usulning samaradorligini markazimizda o'tkazilgan tadqiqotimizni misol tariqasida ko'rsata olamiz. Bizning natijalarimizga ko'ra, PPT qilingan bemorlar guruhida operatsiyadan keyingi davrda BF rivojlanishi 13% bemorlarda kuzatilgan, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 31% OR=0,334, 95% CI 0,175-0,641, $p=0,005$. Bizning natijalarimiz xorijiy mualliflarning natijalariga mos keladi. Masalan, ushbu usulning samaradorligi bo'yicha yaqinda o'tkazilgan meta-tahlil quyidagi natijalarni ko'rsatdi: PPT o'tkazgan bemorlarda JAKBF bilan kasallanish guruhda 10,8% va nazorat guruhida 28,1% ni tashkil etdi (OR = 0,33, 95% CI 0,16-0,69, $p = 0,043$). Ushbu usulning tejamkorligi klinika harajatlarini 13 foizga kamaytirish imkonini beradi. JAKBF kopincha bemorlarning intensiv terapiya bo'limida qolish vaqtini va rehabilitatsiya davrini oshiradi. Bir qancha yirik tadqiqotlar JAKBF ning klinika resurslariga salbiy ta'sirini isbotladi[12].

Xulosa

Olingan malumotlarga tayanib, posterior perikardiotomiya ishlab turgan yurakda AKSH amaliyoti o'tkazgan bemorlarda supraventrikulyar aritmiyani sezilarli darajada kamaytiradi degan xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, yurak tamponadasi, tromboemboliya asoratlari, intensiv terapiya bo'limi va rehabilitatsiya bo'limida yotoq kunlarining uzaytirilishini kamaytiradi va shu bilan klinika resurslarini tejashga ta'sir ko'rsatadi.

Mualliflarning hissalari

Kontseptualizatsiya: G.M. va O.J.; Metodologiya: G.M.; malumotlar yig'ish O.J.; malumotlarni tahlil qilish va sharhlash: G.M va O.J.; original yozuv: O.L.; tahrirlash G.M.; vizualizatsiya G.M.;

loyiha mamuriyati: O.J. Barcha mualliflar qo'lyozmaning nashr etilgan versiyasini o'qib chiqdilar va rozi bo'ldilar.

Authors' contribution.

Conceptualization: G.M. and O.J.; Methodology: G.M.; Data collection: O.J.; Data analysis and interpretation: G.M. and O.J.; Original draft writing: O.L.; Editing: G.M.; Visualization: G.M.; Project administration: O.J. All authors have read and approved the published version of the manuscript.

Moliyalashtirish

Ushbu tadqiqot tashqi moliyalashtirishni olmagan.

Funding source.

This research did not receive any external funding.

Etika tamoyillariga muvofiqlik

Ushbu tadqiqot Helsinki deklaratsiyasiga mos keladi va Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining ekspertiza kengashi tomonidan tasdiqlangan. Barcha tadqiqot ishtirokchilaridan xabardor qilingan, rozilik olindi.

Ethics approval.

This study complies with the Declaration of Helsinki and was approved by the Ethics Committee of the Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Cardiology. Informed consent was obtained from all study participants.

Nashrga xabardor qilingan rozilik.

Tadqiqotning barcha ishtirokchilari tadqiqotda qatnashish va uning natijalarini e'lon qilish uchun yozma ravishda xabardor qilingan va rozilik olingan.

Consent for publication.

All participants in the study were informed in writing and provided their consent to participate and to publish the results.

Ma'lumotlar mavjudligi to'g'risidagi bayonot

Ushbu tadqiqot natijalarini tasdiqlovchi malumotlar mualliflarda mavjud.

Data Availability Statement

The authors have the data confirming the results of this study.

Rahmatnomalar

Mualliflar tadqiqotni o'tkazishda qo'llab-quvvatlagani va yordam bergani uchun Toshkent shahridagi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga, shuningdek, ish sifatini oshirishga hissa qo'shgan qimmatli fikr va tavsiyalari uchun hamkasblariga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Acknowledgments

The authors express their gratitude to the Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Cardiology in Tashkent for its support and assistance in conducting the study, as well as to their colleagues for their valuable insights and recommendations that contributed to improving the quality of the work.

Manfaatlar to'qnashuvi

Mualliflar manfaatlar to'qnashuvi yo'qligini e'lon qiladi.

Conflict of interest

The authors declare no conflict of interest.

Qisqartmalar

AKSH (CABG)	Aorto-koronar shuntlash
JAKBF (POAF)	Jarrohlikdan keyingi bo'lmachalar fibrillyatsiyasi
PPT	Posterior perikardiotomiya

XM EKG (HM ECG)	Xolter monitoringi elektrokardiografiyasi
QD (DM)	Qandli diabet
OSOK (COPD)	O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi
SBK (CKD)	Surunkali buyrak kasalligi
ChQOF (LVEF)	Chap qorinchaning chiqarish fraksiyasi
MI	Miokard infarkti
OR	Odds ratio
CI	Confidence interval
CRP	C-reaktiv oqsil
IL-6	Interleykin-6
EKMO (ECMO)	Ekstrakorporal membranali oksigenatsiya
IABP	Intraaortal balon pompasi
BF / AF	Bo'lmachalar fibrillyatsiyasi
BT	Bo'lmachalar taxikardiyasi
O'BMQAB	O'ng bo'lmacha miokardi qalinlashuvi
EUROSCORE	Jarrohlik xavfini baholash tizimi
Re-entry	Qayta kiruvchi elektr signal mexanizmi
IKM	Intensiv kuzatuv muddati

Adabiyot

- [1] Abouarab AA, Leonard JR, Ohmes LB, Lau C, Rong LQ, Ivascu NS, Pryor KO, Munjal M, Crea F, Massetti M, Sanna T, Girardi LN, Gaudino M. Posterior left pericardiotomy for the prevention of postoperative atrial fibrillation after cardiac surgery (PALACS): study protocol for a randomized controlled trial. *Trials*. 2017;18:593. <https://doi.org/10.1186/s13063-017-2334-4>.
- [2] Mullabayeva GU, Sharipov IM, Jabbarov OA, Fozilov HG. Analiz problemiy postoperatsionnoy fibrillyatsii predserdiy. *Kardiologiya Uzbekistana*. 2023;(2).
- [3] Akintoye E, Sellke F, Marchioli R, Tavazzi L, Mozaffarian D. Factors associated with postoperative atrial fibrillation and other adverse events after cardiac surgery. *J Thorac Cardiovasc Surg*. 2018;155(1):242-51.e10. <https://doi.org/10.1016/j.jtcvs.2017.07.063>.
- [4] Arsenault KA, Yusuf AM, Crystal E, Healey JS, Morillo CA, Nair GM, Whitlock RP. Interventions for preventing post-operative atrial fibrillation in patients undergoing heart surgery (Review). *Cochrane Database Syst Rev*. 2013;(1):CD003611. <https://doi.org/10.1002/14651858.CD003611.pub3>.
- [5] Ali-Hassan-Sayegh S, Mirhosseini SJ, Liakopoulos O, Sabashnikov A, Dehghan HR, Sedaghat-Hamedani F, Kayvanpour E, Ghaffari N, Vahabzadeh V, Aghabagheri M, Mozayan MR, Popov AF. Posterior pericardiotomy in cardiac surgery: systematic review and meta-analysis. *Asian Cardiovasc Thorac Ann*. 2015;23(3):354-62. <https://doi.org/10.1177/0218492314541132>.
- [6] Almassi GH, Wagner TH, Carr B, Hattler B, Collins JF, Quin JA, Ebrahimi R, Grover FL, Bishawi M, Shroyer ALW; VA 517 Randomized On/Off Bypass (ROOBY) Study Group. Postoperative atrial fibrillation impacts on costs and one-year clinical outcomes: the Veterans Affairs Randomized On/Off Bypass Trial. *Ann Thorac Surg*. 2015;99:114-21. <https://doi.org/10.1016/j.athoracsur.2014.07.035>. PMID:25442992.
- [7] Ishii Y, Schuessler RB, Gaynor SL, Yamada K, Fu AS, Boineau JP, Damiano RJ Jr. Inflammation of the atrium after cardiac surgery is associated with inhomogeneity of atrial conduction and atrial fibrillation. *Circulation*. 2005;111:2881-8.
- [8] Tselentakis EV, Woodford E, Chandy J, Gaudette GR, Saltman AE. Inflammation effects on the electrical properties of atrial tissue and inducibility of postoperative atrial fibrillation. *J Surg Res*. 2006;135:68-75.
- [9] Villareal RP, Hariharan R, Liu BC, Kar B, Lee VV, Elayda M, Shah N, Wilson JM. Postoperative atrial fibrillation and mortality after coronary artery bypass surgery. *J Am Coll Cardiol*. 2004;43:742-8.
- [10] Ajam F, Patel S, Alrefae A, Alhaj E, Alsaffar F, Ibrahim M. Cardiac arrhythmias in patients with end-stage renal disease (ESRD) on hemodialysis: recent update and brief literature review. *Am J Intern Med*. 2019;7(1):22-6.
- [11] Wazni OM, Martin DO, Marrouche NF, Latif AA, Ziada K, Shaaraoui M, Saliba W, Schweikert R, Gillinov AM, Tang WH, Chung MK, Tchou PJ, Natale A. Plasma B-type natriuretic peptide levels predict postoperative atrial fibrillation in patients undergoing cardiac surgery. *Circulation*. 2004;110:124-7.
- [12] Greenberg JW, Lancaster TS, Schuessler RB, Melby SJ. Postoperative atrial fibrillation following cardiac surgery: a persistent complication. *Eur J Cardiothorac Surg*. 2017;52(4):665-72. <https://doi.org/10.1093/ejcts/ezx039>.

Nashriyot javobgar emas/ eslatmasi:

Barcha nashrlarda keltirilgan bayonotlar, fikrlar va ma'lumotlar faqat mualliflar va ishtirokchilarga tegishlidir, na Jurnal va na muharrirlar. Jurnal va muharrirlar, mazkur kontentda keltirilgan har qanday g'oyalar, usullar, ko'rsatmalar yoki mahsulotlar natijasida insonlar yoki mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar emas.

Disclaimer of liability/Publisher's Note: The statements, opinions and data contained in all publications belong exclusively to individuals. The authors and participants, and the Journal and the editors. The journal and the editors are not responsible for any damage caused to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products mentioned in the content.

Article

Yangi avlod “Magmaris” bioso‘riluvchi karkasining o‘tkir koronar sindromli bemorlarda endovaskulyar davolashda qo‘llanilishi

S.Sh. Xolikulov *¹ , N.P. Yuldoshev ¹ , A.S. Eshpulatov ¹ 

¹ REX bo‘limi, «Soglom Hayot 2022» ko‘p tarmoqli tibbiyot klinikasi, Toshkent, 100052, Uzbekistan
kholikulovsardor1@gmail.com (S.X.), nabi1975@gmail.ru (N.Y.), aziz.eshpulatov@inbox.ru (A.Sh.)

* Correspondence: kholikulovsardor1@gmail.com; Tel.: +998 90 9016467 (S.X.)

Annotatsiya:

Maqsad. O‘tkir YUIK shakllarida (NSTEMI, STEMI) Magmaris bioso‘riluvchi karkasidan foydalanish samaradorligini baholash va uni qo‘llash asoratlarini oldini olish algoritmini ishlab chiqish.

Materiallar va usullar. O‘tkir YUIK shakllari (NSTEMI, STEMI) bilan kasallangan 64 bemorning (49 ta erkak va 15 ta ayol) klinik ma‘lumotlari tahlil qilindi, ularga Magmaris bioso‘riluvchi karkasi o‘rnatilgan. Bemorlarning anamnez ma‘lumotlari, umumiy klinik ko‘rsatkichlari, laboratoriya va koronaroangiografik ma‘lumotlari o‘rganildi. Barcha bemorlarga endovaskulyar davolash usuli sifatida BVS-Magmaris karkasi o‘rnatilishi bilan teri orqali koronar aralashuv (TOKA) amalga oshirildi.

Natijalar. Magmaris BVS-karkasining implantatsiyasi 100% hollarda angiografik, 95,8% hollarda esa klinik muvaffaqiyat bilan tavsiflandi. Past CHQOKga ega bemorlar SYNTAX shkalasi bo‘yicha yuqori ball ($p < 0.001$), ko‘p tomirli shikastlanishlar ($p > 0.05$), ko‘proq koronar basseyinlar jalb qilinishi ($p > 0.05$), har bir bemorga ko‘proq SS aniqlanishi ($p > 0.05$) va mos ravishda aterosklerotik shikastlanishning uzunligi bilan tavsiflandi. Bu teskari korrelyatsiya bilan tasdiqlandi, lekin ishonch darajasiga yetmadi, ehtimolki, bu bemorlar sonining kamligi bilan izohlanadi. Surunkali buyrak kasalligi (SBK) mavjudligi ko‘proq ko‘p tomirli va murakkab («S» turi) shikastlanishlar soni va mos ravishda ko‘proq karkas implantatsiyasi bilan bog‘liq bo‘ldi. Bunda TOKAning angiografik muvaffaqiyati 100%ni tashkil etdi, ammo klinik muvaffaqiyat SBK bo‘lmagan bemorlarga nisbatan 5,9% past bo‘ldi. 2-tur qandli diabet (QD) komorbidligi venoz arteriyalarda aterosklerotik shikastlanishlarning nisbatan uzunligi va og‘irroq («S» turi) shakllari bilan tavsiflandi. Shu bilan birga ko‘p tomirli shikastlanishlar va yurak kasalliklar soni nisbatan kamroq qayd etildi. 2-tur QD mavjudligi TOKAning angiografik muvaffaqiyatiga ta‘sir qilmadi (100%), ammo klinik muvaffaqiyatni 11,1% ga pasaytirdi.

Xulosa. Mamlakatimizda Magmaris BVS-karkasidan foydalanishni baholash bo‘yicha dastlabki natijalar juda umidbaxsh bo‘ldi. Biroq ushbu yo‘nalishda yana chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarur, xususan turli xavf omillari yoki patologik holatlarning rentgenmorfologik xususiyatlarga ta‘sirini, shuningdek Magmaris polimer skaffoldining xavfsizligi va samaradorligini baholash lozim.

Kalit so‘zlar: Bioso‘riluvchi karkas, koronaroangiografiya, bevosita angiografik muvaffaqiyat, bevosita klinik muvaffaqiyat, surunkali buyrak kasalligi, qandli diabet.

Iqtibos: S.Sh. Xolikulov, N.P. Yuldoshev, A.S. Eshpulatov. Yangi avlod “Magmaris” bioso‘riluvchi karkasining o‘tkir koronar sindromli bemorlarda endovaskulyar davolashda qo‘llanilishi. 2025, 2,4, 2. <https://doi.org/10.70626/cardiouz-2025-2-00061>

Olingan: 10.10.2025

Tuzatilgan: 18.10.2025

Qabul qilingan: 25.11.2025

Nashr qilingan: 03.12.2025

Copyright: © 2025 by the authors.

Submitted to for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

Effectiveness and prevention of complications of the use of a new generation biodegradable framework - magmaris in acute myocardial infarction

Sardor Sh.Xolikulov *¹ , Nabijon P.Yuldoshev ¹ , Aziz S.Eshpulatov ¹

¹ REX Department, “Soglom Hayot 2022” Multidisciplinary Medical Clinic, Tashkent, 100052, Uzbekistan
kholikulovsardor1@gmail.com (S.Sh.), nabi1975@gmail.ru (N.Y.), aziz.eshpulatov@inbox.ru (A.Sh.)

Abstract:

Aim. To evaluate the immediate clinical and angiographic success in patients with NSTEMI, who underwent percutaneous coronary intervention (PCI) with the installation of a new generation of resorbable scaffolds "Magmaris".

Materials and methods. Material and methods: clinical data of 64 patients with an acute form of coronary artery disease (49 men and 15 women) who were fitted with a biodegradable Magmaris frame were used. Anamnestic, general clinical, laboratory and coronary angiographic data were obtained from patients with acute forms of coronary artery disease who underwent percutaneous coronary intervention (PCI) with the installation of a Magmaris BVS frame as endovascular treatment.

Results. Implantation of bioresorbable scaffolds "Magmaris" in patients with coronary artery disease was characterized by immediate good angiographic success in 100% of cases and clinical success in 95.8% of cases. Patients with low LVEF were characterized by a higher SYNTAX score ($p < 0.001$), a greater number of multivessel lesions ($p > 0.05$), the involvement of a larger number of coronary basins ($p > 0.05$), and a greater number of stenotic segments per patient ($p > 0.05$) and, accordingly, a longer atherosclerotic lesion. This was confirmed by an inverse correlation (which did not reach the level of reliability), which may have been due to the small size of the sample under study. The presence of CKD, according to angiographic characteristics, was associated with a greater number of multivessel and complex (type "C" according to the ACC / ANA classification) lesions, a greater number of stenotic segments and, accordingly, the implantation of more devices, while the immediate angiographic success of the PCI procedure was 100%, but clinical success was 5.9% lower, than in patients without CKD. Comorbidity with type 2 diabetes, according to angiographic characteristics, was accompanied by a relatively longer and more severe type (type "C") of atherosclerotic lesions of the coronary arteries, despite the relatively lower incidence of multivessel lesions and a smaller number of stenotic segments. The presence of type 2 diabetes did not in any way affect the angiographic success of the PCI procedure (which was 100%), but worsened the clinical success by 11.1%.

Conclusion. The primary results of evaluating the use of the bioresorbable scaffold "Magmaris" in our country turned out to be very encouraging. However, it is necessary to conduct further more in-depth studies in this direction, in particular, to study the issues of the influence of various risk factors or pathological conditions on angiographic characteristics and assess the safety and effectiveness of using the polymer scaffold "Magmaris".

Keywords: Bioresorbable scaffold, coronary angiography, immediate angiographic success, immediate clinical success, chronic kidney disease, diabetes mellitus.

Kirish

Biorezorbsiyalanuvchi (BVS) karkaslar koronar arteriya shikastlanishlarini davolashda potentsial yondashuv sifatida namoyon bo'ldi. Zamonaviy intervension amaliyot ko'rsatishicha, doimiy karkas va undan doimiy ravishda dori moddasi ajralib turishi faqat vaqtinchalik chora hisoblanadi. Doimiy stentni implantatsiya qilish / o'rnatish, pilakcha rezorbsiyasi va tomirlar tiklanish jarayoni yakunlanganidan so'ng, ortiqcha yoki hatto zararli bo'lishi mumkin. Bu holat bemorni juda kechki tromboz rivojlanishi xavfiga duchor qiladi, shuningdek, tomir devorining o'z reaktivligi pasayadi va uning normal funksiyasi buziladi. Bu xususiyat metall stentlarning salbiy tomoni bo'lib, uni rezorbsiyalanuvchi karkas yordamida bartaraf etish mumkin [1].

Shu nuqtayi nazardan yangi o'z-o'zidan rezorbsiyalanuvchi Magmaris karkasi koronar arteriya shikastlanishlarini davolash uchun juda zamonaviy texnologiya bo'lib ko'rinadi. Biorezorbsiyalanuvchi karkas texnologiyasi tomirlarga vaqtinchalik qo'llab-quvvatlash berib, dorilarni uzatish imkoniyatini yaratadi, DES-stentlarga (dori qoplamali stentlar) xos uzoq muddatli cheklavlarsiz. Michael J. Lipinski va hammualliflari (2019) ma'lumotlariga ko'ra, Magmaris BVS-karkasi 316L metallardan tayyorlangan o'xshash stentga nisbatan kamroq trombogenlik va yallig'lanish hujayralari yig'ilishiga ega. Eksperimental ma'lumotlarga asosanib, mualliflar rezorbsiyalanuvchi magniy karkaslari trombositlar adgeziyasi va endotelial hujayralarning yallig'lanish reaksiyalarini pasaytiruvchi xossalarga ega bo'lishi mumkinligini taxmin qilganlar [2]. Ushbu qurilmaning dastlabki

klirik sinovlari kam sonli bemorlarda o'tkazilib, 3-yillik klinik kuzatuv mobaynida yaxshi klinik natijalar va xavfsizlikka erishilganini ko'rsatdi [3].

O'zbekiston Respublikasi hududida ham ushbu yo'nalishda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday tadqiqotlardan birini Sizga taqdim etamiz.

Tadqiqotning maqsadi – O'tkir YUIK shaklida Magmaris bioso'ruluvchi karkasidan foydalanish samaradorligini baholash va uni qo'llashda asoratlarini oldini olish algoritmini ishlab chiqish.

Materiallar va usullar

Tadqiqotga o'tkir YUIK shakli bilan kasallangan 64 nafar bemor kiritildi, ulardan 49 nafari erkak va 15 nafari ayol (jadval 1).

Tekshirilgan bemorlarning o'rtacha yoshi = $54,3 \pm 9,2$ (33 dan 79 yoshgacha), ularning katta qismi 51–60 yosh guruhiga (37,5%) va 41–50 yosh guruhiga (31,3%) to'g'ri keldi. 70 yoshdan kattalar eng kam (3,1%) bo'ldi.

Arterial gipertenziya (AG) 85,9% hollarda uchradi. Shuningdek, komorbid patologiyalardan 2-tur qandli diabet (QD) qayd etildi (18,8%).

O'tkir YUIK ikki nozologik birlikni o'z ichiga oldi: Q tishchasiz miokard infarkti (inglizcha: non-ST-elevation myocardial infarction – NSTEMI) – 33 bemor va Q tishchasi bilan miokard infarkti (inglizcha: ST-elevation myocardial infarction – STEMI) – 31 bemor.

Biz o'rgangan tadqiqotda boshqa komorbid holatlar qayd etilmadi, ehtimol, bu tadqiqotga faqat O'tkir YUIK va “de novo” shikastlanishli bemorlar kiritilgani sabablidir (jadval 1).

Barcha bemorlarga turmush tarzini tuzatish bo'yicha tavsiyalar, shuningdek, amaldagi standartlarga muvofiq dori-darmon terapiyasi tayinlandi: -adrenoblokatorlar, statinlar, AF-ingibitorlar, antiagregantlar (atsetilsalitsil kislotasi va klopidoqrel kombinatsiyasi – TOKA) dan so'ng kamida 12 oy davomida).

Natijalar

YUIK bilan kasallangan bemorlarda Magmaris BVS-karkaslarini implantatsiya qilish 100% hollarda bevosita yaxshi angiografik va 95,8% hollarda klinik muvaffaqiyat bilan tavsiflandi.

Chap qorincha otish fraksiyasi past bo'lgan bemorlar SYNTAX shkalasi bo'yicha yuqori ball ($p < 0,001$), ko'proq ko'p tomirli shikastlanishlar ($p > 0,05$), ko'proq koronar basseynlar jalb qilinishi ($p > 0,05$), har bir bemorga nisbatan ko'proq SS aniqlanishi ($p > 0,05$) va mos ravishda aterosklerotik shikastlanishning uzunligi bilan tavsiflandi. Bu holat teskari korrelyatsiya bilan tasdiqlandi, biroq ishonch darajasiga yetmadi. Ehtimol, bu bemorlar sonining kamligi bilan bog'liq.

Surunkali buyrak kasalligi (SBK) mavjudligi angiografik xususiyatlarga ko'ra ko'proq ko'p tomirli va murakkab («S» turi) shikastlanishlar, ko'proq SS soni va, shu bilan birga, ko'proq qurilma implantatsiya qilinishi bilan bog'liq bo'ldi. Bunda TOKA amaliyotining angiografik muvaffaqiyati 100%ni tashkil etdi, ammo klinik muvaffaqiyat SBK bo'lmagan bemorlarga nisbatan 5,9% past bo'ldi.

2-tur QD komorbidligi angiografik xususiyatlarga ko'ra nisbatan uzun va og'irroq («S» turi) aterosklerotik shikastlanishlar bilan tavsiflandi. Biroq ko'p tomirli shikastlanishlar va SS soni nisbatan kamroq uchradi. 2-tur QD mavjudligi TOKA amaliyotining angiografik muvaffaqiyatiga ta'sir qilmadi (u 100%ni tashkil etdi), ammo klinik muvaffaqiyatni 11,1% ga pasaytirdi.

Barcha 64 nafar bemorga endovaskulyar davolash usuli – teri orqali koronar aralashuv (TOKA) o'tkazildi. Barcha bemorlarga bioso'ruluvchi Magmaris karkasi o'rnatildi.

Tadqiqotga kiritish mezonlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- Klinik-instrumental tekshiruv natijalariga ko'ra qo'yilgan YUIK tashxisi va bemorning xabardorlikka asoslangan roziligi.
- O'tkir miokard infarktining hujjatli tasdig'i.
- Kasallik davomiyligi 48 soatdan oshmasligi.
- Koronar arteriyalarning birinchi marta shikastlanishi («de novo» native coronary artery).
- Karkas o'rnatish imkonini beruvchi koronar arteriya shikastlanishi o'lchamlari.
- Gemodinamik jihatdan ahamiyatli (diametri bo'yicha 70%) koronar arteriya shikastlanishi.
- Shikastlangan tomir sohasi diametri 2,75 mm dan kam bo'lmasligi.

Tadqiqotdan chiqarish mezonlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- Anamnezda avval o'tkazilgan TOKA (stentlash bilan) yoki aortokoronar shuntlash (AKSH) amaliyoti mavjudligi.
- Yurak-qon tomir tizimi tomonidan og'ir qo'shma patologiya mavjudligi (kardiogen shok; qopqoq shikastlanishlari; aorta anevrizmasi; aniq ifodalangan sistolo-diastolik disfunksiya (ChQOF <45%); og'ir yurak yetishmovchiligi).
- Boshqa a'zo va tizimlar tomonidan og'ir qo'shma patologiyalar mavjudligi (o'pka shishi; o'tkir buyrak yetishmovchiligi; SBK 4–5 bosqichi; davom etayotgan me'da-ichak qon ketishi; noma'lum kelib chiqishli, ehtimol infeksiyon isitma; davolanmagan faol infeksiyon jarayon; o'tkir insult; og'ir anemiya; kontrast moddaga hujjatli anafilaktik reaksiya; asoratlangan periferik tomir kasalliklari).
- Antikoagulyantlar/dezagregantlarni qabul qila olmaydigan yoki og'ir koagulopatiyaga ega bemorlar.
- Bifurkatsiyali shikastlanishlar yoki koronar havzaning o'zan shikastlanishi mavjud shaxslar.
- SYNTAX shkalasi bo'yicha o'rtacha va yuqori xavfli TOKA guruhiga kiruvchi bemorlar.

Birlamchi yakuniy nuqtalar sifatida quyidagilar tanlandi:

- To'satdan yuzaga kelgan kardiogen (yurak) o'lim.
- Nishon tomir bilan bog'liq miokard infarkti (MI).
- Klinik ko'rsatmalarga ko'ra nishon tomirni revaskulyarizatsiya qilish.
- Stenokardiyaning qaytalashi / kuchyishi
- Stent trombozi (aniqlangan, ehtimoliy, mumkin bo'lgan holat).

Asosiy yurak qon tomir arteriyalari havzalarining zararlanish darajasi

Asosiy yurak qon tomir arteriyalari havzalarining zararlanish darajasi tahlil qilingan tadqiqotda quyidagicha namoyon bo'ldi (rasm.2).

Rasm.2 da ko'rsatilganidek, nozologik tarkibiy qismga bog'liq bo'lmasdan, har ikki guruhda ham eng ko'p hollarda oldingi tushuvchi arteriya (LAD) havzasi zararlangan (muvofig ravishda 1-guruhda 63,6% va 2-guruhda 83,9% holat; $r=0,121$ va $z=2,398$). Aksincha, o'ng koronar arteriya (RCA) va aylanib o'tuvchi arteriya () havzalari zararlanishi ko'proq 1-guruh bemorlarida kuzatildi (barcha $r>0,05$).

The authors declare that they have no conflicts of interest. The sponsors were not involved in the design of the study, data collection, analysis; writing of the manuscript; and decision to publish the results.

Qisqartmalar

AG	arterial gipertenziya
AGP	antigipertenziv preparatlar
BA	bel aylanasi
BMQAO'BKH	bosh miya qon aylanish o'tkir buzilishidan keyingi holat
IKKS	infarktdan keyingi kardioskleroz
YQTK	yurak-qon tomir kasalliklari
YQT	yurak-qon tomir
YUS	yurak urish soni
YIK	yurak ishemik kasalligi
OP	oilaviy poliklinika
SAB	sistolik arterial bosim
DAB	diastolic arterial bosim
OTTSB	osh tuziga ta'm sezish bo'sag'asi
TVI	tana vazni indeksi
QD	qandli diabet
UXS	umumiy xolesterin
O'r.AB	o'rtacha arterial bosim

Adabiyot

- [1] Ataniyazov X.X. Orol bo'yi aholisida asoratlangan gipertoniya kasalligining o'ziga xos kechishi va klinik-genetik tamoyillari. Tibbiyot fanlari falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2022 y. Toshkent. 15 v. English: Ataniyazov Kh.Kh. The specific course and clinical and genetic principles of complicated hypertension in the population of the Aral Sea region. Dissertation for the degree of Doctor of Philosophy in Medical Sciences. 2022. Tashkent. 15 p.
- [2] Abdullaev R.B., Matkarimova D.S., Dushanov Sh.B. et al. Aral crisis: problems of environmental culture and health. Monograph. Urgench. 2012. 120 p.
- [3] Abdullaeva G.Zh., Khamidullaeva G.A., Khafizova L.Sh., Khalikova A.B. The role of increased consumption of table salt in increasing the risk of developing cardiovascular complications. Handbook for physicians. 2016.-40 p.
- [4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.11.2020-yildagi "Aholini sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4887-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/5090241>. English: Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. 4887 dated 10.11.2020 "On additional measures to ensure healthy nutrition of the population." <https://lex.uz/docs/5090241>.
- [5] Expert Committee of the Russian Medical Society on Arterial Hypertension/All-Russian Scientific Society of Cardiologists. Diagnosis and treatment of arterial hypertension. Recommendations of the Russian Medical Society on Arterial Hypertension/All-Russian Scientific Society of Cardiologists. Systemic hypertension. 2010; 3:5-26.
- [6] Mukasheva B.G., The influence of climate on the health of the population of the Aral Sea region // Occupational Hygiene and Medical Ecology, journal. No. 4 (49), 2015.-P.20-30.
- [7] Elliott P, Stamler J, Nichols R et al. Intersalt revisited: further analyses of 24 hour sodium excretion and blood pressure within and across populations. Intersalt Cooperative Research Group. BMJ 1996; 312: 1249-53.
- [8] Gillies AH, Carney SL, Smith AJ et al. Adjunctive effect of salt restriction on antihypertensive efficacy. Clin Exp Pharmacol Physiol 1984; 11 (4): 395-8.
- [9] Kempner W. Treatment of heart and kidney disease and arteriosclerotic vascular disease with rice diet. Ann Intern Med 1949; 31 (5): 821-56.

- [10] Mancilha-Carvalho JJ, Souza e Silva NA The Yanomami Indians in the INTERSALT Study. *Arq Bras Cardiol* 2003; 80:289-300.
- [11] Oliver WB, Cohen EL, Neel JV. Blood pressure, sodium intake, and sodium related hormones in the Yanomamo Indians, a «no-salt» culture. *Circulation* 1975; 52:146-5110.
- [12] Stamler J, Rose G, Elliott P et al. Findings of the International Cooperative INTERSALT Study Hypertension 1991; 17 (Suppl. 1): I9-15.
- [13] The INTERSALTStudy Group. INTERSALTStudy an international cooperative study on the relation of blood pressure to electrolyte excretion in populations. I. Design and methods. The INTERSALT Co-operative Research Group *J. Hypertens* 1986;4: 781-7.

Nashriyot javobgar emas/ eslatmasi:

Barcha nashrlarda keltirilgan bayonotlar, fikrlar va ma'lumotlar faqat mualliflar va ishtirokchilarga tegishlidir, na Jurnal va na muharrirlar. Jurnal va muharrirlar, mazkur kontentda keltirilgan har qanday g'oyalar, usullar, ko'rsatmalar yoki mahsulotlar natijasida insonlar yoki mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar emas.

Disclaimer of liability/Publisher's Note: The statements, opinions and data contained in all publications belong exclusively to individuals. The authors and participants, and the Journal and the editors. The journal and the editors are not responsible for any damage caused to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products mentioned in the content.

Article

Dilatatsion kardiomiopatiya bilan ogʻrigan bemorlarda kasallik kechishining ogʻirlik darajasi va tizimli yalligʻlanish oʻrtasidagi bogʻliqlik

T.A. Abdullayev¹ , M.M. Rahmatov¹ , X.A. Gʻulomov^{*1} 

¹ Yurak yetishmovchiligi va miokardning nokoronarogen kasalliklari boʻlimi, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent, 100052, Oʻzbekiston

escardio@mail.ru (T.A.), mhmdjnrhmtv@gmail.com (M.R.), Hgulamov93.08@gmail.com (X.G.)

* Correspondence: mhmdjnrhmtv@gmail.com; l.: +998901223639 (M.R.)

Annotatsiya:

Maqsad. Dilatatsion kardiomiopatiya bilan ogʻrigan bemorlarda klinik-gemodinamik koʻrsatkichlar va yalligʻlanish markerlari (C-reaktiv oqsil, IL-6, OʻNO- α) oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganish.

Materiallar va usullar. Tadqiqotga dilatatsion kardiomiopatiya bilan ogʻrigan hamda SYuYe NYHA boʻyicha II-IV FS bilan asoratlangan 42 nafar ($38,5 \pm 1,2$ yil) bemor kiritildi. Bemorlar ikki guruhga ajratildi: I guruh – FS II ($n=12$) va II guruh – FS III-IV ($n=30$).

Natijalar. SYuYe ogʻirlik darajasi ortishi bilan (FS III-IV) bemorlar qon zardobida C-reaktiv oqsil ($7,6 \pm 1,1$ mg/l va $4,1 \pm 0,6$ mg/l, $p<0,05$), IL-6 ($7,5 \pm 0,8$ pg/ml va $4,6 \pm 0,2$ pg/ml, $p<0,01$) va OʻNO- α ($8,1 \pm 0,9$ pg/ml va $5,6 \pm 0,7$ pg/ml, $p<0,05$) miqdori oshgan, bu esa chap qorincha dilatatsiyasi (YaSO' 58 ± 1 , $p<0,05$) va otish fraktsiyasining pasayishi ($34,7 \pm 1,8\%$, $p<0,05$) bilan bogʻliq boʻlgan.

Xulosa. Yalligʻlanish markerlari DKMP ogʻirligi va prognozini baholashda muhim diagnostik ahamiyatga ega.

Kalit soʻzlar: Dilatatsion kardiomiopatiya, surunkali yurak yetishmovchiligi, yalligʻlanish, C-reaktiv oqsil, interleykin-6, oʻsma nekrozi omili- α , kolxitsin.

Association between disease severity and systemic inflammation in patients with dilated cardiomyopathy

Timur A. Abdullayev¹ , Mahmud M. Rakhmatov¹ , Khumoyun A. Gulomov^{*1} 

Iqtibos: T.A. Abdullayev, M.M. Rahmatov, X.A. Gʻulomov. Dilatatsion

kardiomiopatiya bilan ogʻrigan bemorlarda kasallik kechishining ogʻirlik darajasi va tizimli yalligʻlanish oʻrtasidagi bogʻliqlik. 2025, 2, 4, 6.

<https://doi.org/10.70626/cardiouz-2025-2-00065>

Olingan: 10.10.2025

Tuzatilgan: 18.10.2025

Qabul qilingan: 25.11.2025

Nashr qilingan: 10.12.2025

Copyright: © 2025 by the authors. Submitted to for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

¹ Department of Heart Failure and Non-Coronary Myocardial Diseases, Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Cardiology, Tashkent, 100052, Uzbekistan

escardio@mail.ru (T.A.), mhmdjnrhmtv@gmail.com (M.R.), Hgulamov93.08@gmail.com (Kh.G.)

Abstract:

Aim. The aim of this study was to investigate the relationship between clinical-hemodynamic parameters and inflammatory markers (C-reactive protein, interleukin-6, tumor necrosis factor- α) in patients with dilated cardiomyopathy.

Materials and methods. The study included 42 patients (mean age 38.5 ± 1.2 years) with dilated cardiomyopathy and chronic heart failure classified as NYHA functional class II–IV. The patients were divided into two groups: Group I – class II ($n=12$) and Group II – class III–IV ($n=30$).

Results. As heart failure severity increased (class III–IV), serum levels of C-reactive protein (7.6 ± 1.1 mg/L vs. 4.1 ± 0.6 mg/L, $p<0.05$), IL-6 (7.5 ± 0.8 pg/mL vs. 4.6 ± 0.2 pg/mL, $p<0.01$), and TNF- α (8.1 ± 0.9 pg/mL vs. 5.6 ± 0.7 pg/mL, $p<0.05$) were significantly elevated. These changes were associated with left ventricular dilatation (LVEDD 58 ± 1 mm, $p<0.05$) and reduced ejection fraction ($34.7 \pm 1.8\%$, $p<0.05$).

Conclusion. The findings suggest that inflammatory markers play a crucial role in assessing the severity and prognosis of dilated cardiomyopathy and chronic heart failure.

Keywords: Dilated cardiomyopathy, chronic heart failure, inflammation, C-reactive protein, interleukin-6, tumor necrosis factor- α , colchicine.

Kirish

2023-yilda Yevropa Kardiologiya Jamiyati (ESC) tomonidan ishlab chiqilgan kardiomiopatiyalarni davolash bo'yicha yangi klinik tavsiyalar so'nggi 15 yil mobaynida tibbiyotning turli sohalari hamkorligida olib borilgan jadal ilmiy faoliyat natijasida yaratilgan bo'lib, kardiologik jamiyatning klinik amaliyotiga joriy qilinmoqda [1]. Ushbu xujjat ESC tomonidan kardiomiopatiyalarni tasniflashning yangi bayonotini e'lon qilish bilan boshlangan bo'lib, unga shuningdek genetik maslahat va genetik testlash, kardiomiopatiyalarni aniqlash bo'yicha klinik-diagnostik yondashuvlar, gipertrofik kardiomiopatiya bo'yicha klinik tavsiyalar, gipokinetik nodilatatsion kardiomiopatiya bo'yicha takliflar, yurak amiloidozi bo'yicha bayonot hamda genetik variantlarni interpretatsiya qilish va ularni klinik amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini qamrab olgan muhim hujjatlar hamrohlik qildi [2,8]. Ishlab chiqilgan yangi tasnifga ko'ra kardiomiopatiyalar 5 ta fenotipga ajratilgan — gipertrofik kardiomiopatiya (GKMP), dilatatsion kardiomiopatiya (DKMP), restriktiv kardiomiopatiya (RKMP), aritmogen o'ng qorincha kardiomiopatiyasi (AO'QKMP) va chap qorinchaning nodilatatsion kardiomiopatiyasi (ChQNDKMP).

Kardiomiopatiya fenotiplari orasida dilatatsion kardiomiopatiya chap qorincha otish fraksiyasi pasaygan yurak yetishmovchiligi (ChQOFpasayganYuYe) rivojlanishiga olib keluvchi eng keng tarqalgan sabablaridan biri sifatida tan olingan bo'lib, butun dunyoda yurak transplantatsiyasi bajarilishiga asosiy ko'rsatma hisoblanadi [9]. Dilatatsion kardiomiopatiya — asosan chap qorinchaning (ChQ) dilatatsiyasi hamda uning global yoki regional sistolik disfunktsiyaning mavjudligi bilan tavsiflanib, ushbu holatni faqatgina yuklama sharoitlarining buzilishi (masalan, gipertoniya, yurak qopqoqlari kasalliklari, tug'ma yurak nuqsonlari) yoki yurak ishemik kasalligi bilan izohlab bo'lmaydi [10]. So'ngi ma'lumotlarga ko'ra DKMP ning tarqalish darajasi har 100 000 aholiga 36 holatni tashkil etadi, yillik kasallanish esa har 100 000 aholiga 7 ta holat deb baholanadi [9,11]. Kasallik prognozi uning kelib chiqish sababi, klinik bosqichi va qo'llanilgan davolash choralarining samaradorligiga bog'liq holda jiddiy farq qiladi. Standart terapiya sharoitida 5 yillik yashab qolish ko'rsatkichi taxminan 50–60% atrofida bo'lsa-da, refrakter yurak yetishmovchiligi yoki qorinchalar aritmiyasi mavjud bemorlarda o'lim xavfi ortadi [12].

Surunkali yurak yetishmovchiligini (SYuYe) davolashning zamonaviy strategiyalari medikamentoz terapiya, elektr qurilmalar (CRT-D, implantatsiya qilinadigan kardioverter-defibrilyator) va ChQ yordamchi qurilmalarini o'rnatish yoki yurak transplantatsiyani o'z ichiga oladi [13]. Hozirgi kunda surunkali yurak yetishmovchiligiga olib kelgan etiologik omillardan qat'iy nazar ChQ OF pasaygan YuYe ni medikamentoz davolashda to'rt komponentli standart terapiya qo'llanilmoqda. Bular angiotenzin-aylantiruvchi fermenti ingibitorlari (iAAF)/angiotenzin retseptor va neprilizin ingibitorlari (ARNI), beta-blokatorlar (BB), mineralokortikoid retseptorlari antagonistlari (MRA), 2-tip natriy-glyukoza kotransporteri ingibitorlari (iSGLT-2), shuningdek shish sindromi bo'lganda qovuzloq diuretiklaridir [13]. Biroq optimal medikamentoz terapiya qo'llanilishiga qaramasdan DKMP bilan og'rigan bemorlarning hayot prognozi xali ham noxushligicha saqlanib qolmoqda, bu esa kasallik patogenezini yanada chuqurroq o'rganishni hamda yangi davolash usullarini ishlab chiqishni talab etadi.

So'nggi yillarda SYuYe rivojlanishining yangi kontseptsiyasi taklif etilgan bo'lib, unga ko'ra tizimli yallig'lanish yurak yetishmovchiligining noxush kechishi va yuqori yurak-qon tomir xavfining prediktori sifatida qaralmoqda [14]. SYuYe natijasida yuzaga keladigan mikrotsirkulyatsiyadagi jiddiy buzilishlar to'qimalardagi makrofaglar va monotsitlarning nospetsifik faollashuviga, ular esa o'z navbatida yallig'lanisholdi sitokinlari — o'sma nekrozi omili-alfa (O'NO- α), interleykin-1 (IL-1), interleykin-6 (IL-6) va boshqalar sintezining kuchayishiga olib keladi. Ushbu sitokinlar ChQ disfunktsiyasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim patogenetik mexanizmlardan biri sifatida qaralmoqda [15].

Maqsad

Dilatatsion kardiomiopatiya bilan og'rikan bemorlarda klinik-gemodinamik ko'rsatkichlar va qon zardobidagi yallig'lanish markyori – C-reaktiv oqsil (CRO) va yallig'lanisholdi sitokinlari (IL-6, O'NO- α) miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.

Materiallar va usullar

Tadqiqot Xelsinki deklaratsiyasi tamoyillariga muvofiq ravishda amalga oshirildi. Protokol RIKIATM huzuridagi Etik qo'mita tomonidan ma'qullandi. Tadqiqotga jalb etilishidan oldin barcha ishtirokchilardan yozma ravishda rozilik olindi. Tadqiqotga RIKIATM 7-Miokardning nokoronarogen kasalliklari va pulmonologiya bo'limidagi DKMP tashxisi qo'yilgan hamda SYuYe NYHA bo'yicha II-IV FS bilan asoratlangan 42 nafar (25 erkak va 17 ayol) 18 yoshdan 57 yoshgacha bo'lgan (o'rtacha yosh $38,5 \pm 1,2$ yil) bemorlar olindi. Kardiomiopatiyalarni davolash bo'yicha ESC 2023 tavsiyalariga muvofiq bemorlarga DKMP tashxisi qo'yildi. Barcha bemorlardan anamnestik ma'lumotlar yig'ildi, KHBSH shkalasi yordamida klinik holat baholandi, 6 daqiqalik yurish testi (6DYuT) o'tkazildi va uning asosida NYHA tasnifiga ko'ra yurak yetishmovchiligi funktsional sinfi aniqlandi. Barcha bemorlar SYuYe funktsional sinfiga ko'ra ikki guruhga bo'lindi: I guruh – FS II bo'lgan bemorlar ($n=12$); II guruh – FS III- IV bo'lgan bemorlar ($n=30$). Shuningdek, barcha bemorlarda umumklinik tekshiruvlar: standart 12 tarmoqli EKG tekshiruvi, transtorakal ExoKG tekshiruvi bajarildi. Bundan tashqari barcha bemorlar qon zardobida yallig'lanish markyori (CRO) va yallig'lanisholdi sitokinlari (IL-6, O'NO- α) miqdori aniqlandi. Tadqiqotga infeksiyon, allergik, onkologik va immun tizim kasalliklari, shuningdek, o'pkalar surunkali obstruktiv kasalligi bilan og'rikan bemorlar qo'shilmadi, negaki ushbu kasalliklarda yallig'lanish markyorlari va sitokinlar miqdori yuqori bo'ladi.

Olingan ma'lumotlarning statistik tahlili MedCalc dasturiy ta'minoti yordamida amalga oshirildi. Aniqlangan ko'rsatkichlar orasida arifmetik o'rtacha qiymat (M), standart og'ish (SD) va arifmetik o'rtacha qiymatning standart xatosi (m) hisoblab chiqildi. Ahamiyatli farqlar Styudentning t-kriteriysi asosida aniqlandi. $p<0,05$ bo'lgan holatlar statistik jihatdan ishonchli deb hisoblandi. Ma'lumotlar $M \pm m$ ko'rinishida keltirildi.

Natijalar

Ikkala guruhdagi bemorlarning boshlang'ich klinik va demografik ko'rsatkichlari taqqoslanganda ular o'rtasida ishinochli farqlar aniqlanmadi. I va II guruhdagi bemorlarning KHBSH shkalasi bo'yicha to'plangan ballar yig'indisi mos ravishda $7,3 \pm 0,7$ ball va $8,9 \pm 0,3$ ballni tashkil etdi. Shuningdek, 6DYuT davomida bosib o'tilgan masofa I va II guruhlarda mos ravishda $350,4 \pm 19,7$ metr va $248,8 \pm 13,2$ metrni tashkil etdi (Jadval 1).

Table 1. Initial clinical and demographic parameters ($M \pm m$) in patients with DCM according to the severity of HF

Jadval 1. DKMP bilan og'rikan bemorlarda SYuYe og'irlik darajasiga ko'ra boshlang'ich klinik va demografik ko'rsatkichlar ($M \pm m$)

Ko'rsatkich	I guruh FS II ($n=12$)	II guruh FS III-IV ($n=30$)	p
Yosh, yil	$41,4 \pm 2,6$	$41,5 \pm 2,1$	$p>0,05$
Kasallikning davomiyligi, oy	$9,4 \pm 3,8$	$8,7 \pm 1,6$	$p>0,05$
YuQS, daqiqa	$87,2 \pm 3,3$	$93,7 \pm 2,7$	$p>0,05$
YuQS, daqiqa	$87,2 \pm 3,3$	$93,7 \pm 2,7$	$p>0,05$
SAB, mm.sim.ust.	$110,8 \pm 4,3$	$108,4 \pm 2,9$	$p>0,05$
DAB, mm.sim.ust.	$72,5 \pm 3,3$	$69,2 \pm 1,9$	$p>0,05$

Izoh: n – bemorlar soni; p - I guruhga nisbatan ishochlik darajasi; KHBSH – klinik holatni baholash shkalasi; 6DYuT – 6 daqiqalik yurish testi; YuQS – yurak qisqarishlari soni; SAB – sistolik arterial bosim; DAB – diastolik arterial bosim.

Ikkala guruhdagi bemorlarning ExoKG tekshiruv natijalari taqqoslanganda quyidagilar aniqlandi (Jadval 2). II guruhdagi bemorlarning (FS III-IV) ExoKG ko'rsatkichlari I guruhdagi bemorlarniki (FS II) bilan taqqoslanganda deyarli barcha ko'rsatkichlarda yaqqol salbiy o'zgarishlar aniqlandi, biroq faqatgina YaSO', YaSH, OF va ChB o'lchami ko'rsatkichlari orasidagi farq ishonchli deb baholandi ($p<0,05$). Jumladan, YaSO' ko'rsatkichlari I va II guruhlarda mos ravishda 52 ± 2 mm

va 58 ± 1 mm ni tashkil etdi; YaSH ko'rsatkichlari I va II guruhlarda mos ravishda $134,5 \pm 13,4$ ml va $170,1 \pm 10,7$ ml ni tashkil etdi; ChQ OF ko'rsatkichlari I va II guruhlarda mos ravishda $43,1 \pm 3,5$ % va $34,7 \pm 1,8$ % ni tashkil etdi; ChB o'lchami ko'rsatkichlari I va II guruhlarda mos ravishda 41 ± 2 mm va 54 ± 5 mm ni tashkil etdi. Qolgan ko'rsatkichlar o'rtasida ishonchli farqlar aniqlanmadi.

Table 2. Cardiac hemodynamic parameters ($M \pm m$) in patients with DCM according to the severity of HF
Jadval 2. DKMP bilan og'rigan bemorlarda SYuYe og'irlik darajasiga yurakichi gemodinamikasi ko'rsatkichlari ($M \pm m$)

Ko'rsatkich	I guruh FS II (n=12)	II guruh FS III-IV (n=30)	p
QAT, mm	$9,7 \pm 0,5$	$8,9 \pm 0,3$	$p > 0,05$
ChQOD, mm	$9,8 \pm 0,5$	$9,5 \pm 0,3$	$p > 0,05$
YaDO', mm	67 ± 2	70 ± 1	$p > 0,05$
YaSO', mm	52 ± 2	$58 \pm 1^*$	$p < 0,05$
YaDH, ml	$236,1 \pm 15,9$	$261,8 \pm 14,9$	$p > 0,05$
YaSH, ml	$134,5 \pm 13,4$	$170,1 \pm 10,7^*$	$p < 0,05$
OF, %	$43,1 \pm 3,5$	$34,7 \pm 1,8^*$	$p < 0,05$
ChB, mm	41 ± 2	$54 \pm 5^*$	$p < 0,05$
O'Q, mm	28 ± 3	35 ± 3	$p > 0,05$

Izoh: n – bemorlar soni; p – I guruhga nisbatan ishochlik darajasi; YaDO' – yakuniy diastolik o'lcham; YaSO' – yakuniy sistolik o'lcham; YaDH – yakuniy diastolik hajm; YaSH – yakuniy sistolik hajm; OF – otish fraktsiyasi; ChB – chap bo'lmacha; O'Q – o'ng qorincha; QAT – qorinchalar aro to'siq; ChQOD – chap qorincha orqa devori.

Biz shuningdek bemorlar qon zardobidagi yallig'lanisholdi sitokinlari (IL-6, O'NO- α) va CRO miqdorini tekshirdik va ikkala guruh o'rtasida taqqoslama tahlil o'tkazildi. Bemorlarda yurak yetishmovchiligining og'irlik darajasi ortib borishi bilan yallig'lanish markyori va sitokinlar miqdori ham ishonchli darajada ko'tarilib borganligi aniqlandi. Xususan, I guruhdagi bemorlarda (FS II) CRO miqdori $4,1 \pm 0,6$ mg/l ni tashkil etgan bo'lsa, II (FS III-IV) guruhdagi bemorlar qon zardobidagi CRO miqdori $7,6 \pm 1,1$ mg/l ni tashkil etdi hamda ushbu ko'rsatkich II guruh bemorlarida I guruhdagi bemorlarnikiga nisbatan 85,4% ga yuqori bo'ldi ($p < 0,05$). Ikkala guruhdagi bemorlar qon zardobidagi IL-6 miqdorining taqqoslama tahlili o'tkazilganda, I guruhdagi bemorlar qon zardobida IL-6 miqdori $4,6 \pm 0,2$ pg/ml ni tashkil etdi, II guruhdagi bemorlarda esa $7,5 \pm 0,8$ pg/ml ni tashkil etdi hamda II guruh bemorlarida I guruhdagi bemorlarnikidan ishonchli ravishda 63 % ga yuqori ekanligi aniqlandi ($p < 0,01$). YuE funktsional sinfi ortib borishi bilan bemorlar qon zardobidagi O'NO- α miqdori ham ortib borgan hamda I va II guruhlarda mos ravishda $5,6 \pm 0,7$ pg/ml va $8,1 \pm 0,9$ pg/ml ni tashkil etdi. II guruhdagi bemorlar qon zardobidagi O'NO- α miqdori I guruhdagi bemorlarnikiga nisbatan 44,6% ga yuqori ekanligi aniqlandi ($p < 0,05$).

Table 3. Serum pro-inflammatory cytokines (IL-6, TNF- α) and CRP levels ($M \pm m$) in patients with DCM according to the severity of HF

Jadval 3. DKMP bilan og'rigan bemorlarda SYuYe og'irlik darajasiga ko'ra qon zardobidagi yallig'lanisholdi sitokinlari (IL-6, O'NO- α) va CRO miqdori ($M \pm m$)

Ko'rsatkich	I guruh FS II (n=12)	II guruh FS III-IV (n=30)	p
CRO, mg/l	$4,1 \pm 0,6$	$7,6 \pm 1,1^*$	$p < 0,05$
IL-6, pg/ml	$4,6 \pm 0,2$	$7,5 \pm 0,8^{**}$	$p < 0,01$
O'NO- α , pg/ml	$5,6 \pm 0,7$	$8,1 \pm 0,9^*$	$p < 0,05$
O'NO- $\alpha > 6,0$ pg/ml	5 (41,6%)	21 (70%)	

Izoh: n – bemorlar soni; p – I guruhga nisbatan ishochlik darajasi; CRO – C-reaktiv oqsil; O'NO- α – o'sma nekrozi omili- α ; IL-6 – interleykin-6.

Keltirilgan ma'lumotlar SYuYe og'irlik darajasi hamda qon zardobidagi C-reaktiv oqsil va IL-6, O'NO- α kabi yallig'lanisholdi sitokinlari o'rtasida yaqqol musbat bog'liqlik borligini ko'rsatadi.

Munozara

Etiologiyasidan qat'iy nazar, yurak yetishmovchiligining rivojlanishi ham mahalliy, ham tizimli yallig'lanish kaskadlarining faollashuvi bilan bog'liq [16]. Miokardit yoki yallig'lanishli kardiomiopatiya bilan og'rigan bemorlarda yallig'lanish yurak yetishmovchiligining asosiy sababi hisoblanadi [17]. Bundan tashqari, sitokinlar ta'sirida yuzaga kelgan yallig'lanish o'tkir stress-indutsirlangan "Takotsubo" kardiomiopatiyasi rivojlanishida ham ishtirok etishi aniqlangan [18]. Yurak shikastlanishiga javoban yallig'lanish reaksiyasi dastlab adaptiv xarakterga ega bo'ladi, biroq ortiqcha va uzoq davom etuvchi yallig'lanish javobi noadaptiv jarayonga aylanib, yurak yetishmovchiligi patogenezida hal qiluvchi omillardan biri bo'lib qoladi. Bir qator tadqiqot natijalariga ko'ra, yurak yetishmovchiligi mavjud bemorlar qon zardobida o'sma nekrozi omili- α (O'NO- α), interleykin-6 (IL-6), interleykin-8 (IL-8) kabi yallig'lanisholdi sitokinlari, hamda C-reaktiv oqsil (CRO) miqdori yuqori bo'lgan [19,20]. Uzoq muddatli subklinik tizimli yallig'lanish yurak mushagidagi yallig'lanish javobining shakllanishida hal qiluvchi o'rin egallashi aniqlangan [21]. Faollashgan to'qima makrofaglari ham yallig'lanisholdi sitokinlari va xemokinlarni sintezlab, miokardda yallig'lanish jarayonini kuchaytiradi hamda miokard fibrozlanishi va kardiomiopatiya rivojlanishi uchun sharoit yaratadi [22]. Jumladan, idiopatik DKMP rivojlangan bemorlarning deyarli yarmida biopsiya materiallarida yallig'lanisholdi sitokinlari miqdorining oshganligi va miokardda limfotsitar infiltratsiya aniqlangan [23].

DKMP bilan og'rigan bemorlar miokard to'qimasida doimiy ravishda O'NO- α ekspressiyasining oshishi qayd etilgan [24]. Belenkov Yu.N. va hammualliflarning tadqiqotida kardiomiotsitlarning o'zi O'NO- α ni ishlab chiqarish qobiliyatiga ega ekanligi va bunda sitokin miqdori to'g'ridan-to'g'ri miokardning zo'riqish darajasiga bog'liq ekanligi isbotlangan [25]. Yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlar qon zardobida O'NO- α ning yuqori darajasi ChQ OF pasaygan va ChQ OF saqlangan subpopulyatsiyalarda o'lim ko'rsatkichlarining oshishi bilan bog'liq bo'lgan [26].

Qon zardobidagi IL-1 miqdori turli etiologik omillarga (miokard infarkti, chap qorinchaga ortiqcha bosim yuklamasi va kardiomiopatiyalarga) bog'liq yurak yetishmovchiligining eksperimental modellarida doimiy ravishda oshganligi kuzatiladi [27–29]. Yurak yetishmovchiligida immun hujayralari, fibroblastlar, endoteliy hujayralari va kardiomiotsitlar IL-1 sintezi va faollashuviga hissa qo'shishi aniqlangan [30–32]. IL-1 tizimining faollashuvi turli mexanik yo'llar orqali yurakning sistolik va diastolik faoliyatining buzilishiga olib keladi hamda YuE patogenezida muhim ahamiyat kasb etishi mumkin [33]. Masalan, IL-1 siklik AMF ga bog'liq bo'lmagan mexanizm orqali L-tipdagi kaltsiy kanallarining beta-adrenergik reaksiyasini pasaytirishi isbotlangan [34]. Bundan tashqari, IL-1 kardiomiotsitlarda azot oksidi sintezlovchi ferment ekspressiyasini oshiradi, bu esa azot oksidi faolligining ortishiga va miokard qisqaruvchanlik qobiliyatining pasayishiga olib keladi [35]. 2017 yilda italiyalik olimlar tomonidan DKMP bilan og'rigan bemorlarda inflammasomalar va tizimli yallig'lanish biomarkerlari ahamiyatini o'rganishga qaratilgan tadqiqot o'tkazilgan. Bu tadqiqot doirasida 156 nafar ambulator bemor tekshirilgan (o'rtacha yosh — 58 yosh, 77% — erkaklar, ChQ OF medianasi — 35%, NUP medianasi — 189 pg/ml, IL-1 — 1,08 pg/ml, IL-6 — 1,7 pg/ml, IL-10 — 2,7 pg/ml). 89,6 oylik kuzatuv davomida 35 nafar bemor (22%) vafot etgan yoki yurak transplantatsiyasi amaliyoti bajarilgan bo'lib, ularning ko'pchiligida NYHA bo'yicha III FS, bo'lmachalar fibrillyatsiyasi (BF), ChQ OF ancha past va BNP kontsentratsiyasi ancha yuqori ekanligi qayd etilgan. IL-1, IL-6 va IL-10 miqdori yaxshi va yomon prognozli guruhlar o'rtasida sezilarli farq qilmagan. Shuningdek, IL-1 miqdori NYHA sinflari yoki ChQ OF kvartillari orasida ham ahamiyatli farq ko'rsatmagan. Biroq, ko'p omilli tahlilda IL-1 barcha sabablar natijasida yuzaga kelgan o'limning mustaqil va kuchli prediktori ekanligi aniqlangan [36].

Bir nechta klinik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yurak yetishmovchiligi bilan og'rigan bemorlarning miokard to'qimasida sog'lom odamlarnikiga nisbatan IL-6 ekspressiyasi yuqori bo'lgan [37]. Simptomsiz sistolik disfuntsiya bilan kechuvchi kasalliklarda IL-6 miqdorining ortishi aniqlangan, shuningdek, simptomsiz keksa bemorlar populyatsiyasida IL-6 va C-reaktiv oqsil (CRO) miqdorining ortishi yurak yetishmovchiligi holatlarini bashorat qilishda qo'llanilishi ko'rsatilgan [38,39]. Interleykin-6 hepatotsitlarda CRO ishlab chiqarilishining kuchli induktori bo'lib, u gipoksiyaga javoban bir necha turdagi hujayralar, shu jumladan, kardiomiotsitlar tomonidan ham ishlab chiqariladi [40]. TIME-CHF tadqiqoti turg'un surunkali yurak yetishmovchiligi bilan og'rigan

chap qorincha otish fraktsiyasi saqlangan va pasaygan bemorlar qon zardobida yuqori sezgirlikka ega C-reaktiv oqsil miqdorining oshganligi ko'rsatilgan [41].

Bizning tadqiqotimizda DKMP bilan og'rikan bemorlarning qon zardobida yallig'lanisholdi sitokinlari (IL-6, O'NO- α) va yallig'lanish markeri (CRO) miqdori ishonchli darajada oshgani aniqlandi. Tadqiqotimizda yurak yetishmovchiligining og'irlik darajasi ortishiga bog'liq ravishda yurakning patologik remodelanish darajasi hamda qon zardobidagi sitokinlar miqdori va C-reaktiv oqsil miqdori oshganligi ko'rsatildi.

Yurak yetishmovchiligi patogenzida yallig'lanisholdi sitokinlari muhim o'rin egallashi, tizimli yallig'lanishga qarshi yo'naltirilgan maxsus terapiya usullarini qo'llashni taqozo etadi. An'anaviy tarzda yallig'lanish kasalliklarini davolashda qo'llanilgan kolxitsin, yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda o'zining xavfsizligini isbotlagan hamda hozirgi kunga kelib istiqbolli terapevtik dori vositasi sifatida o'rganilmoqda. Kolxitsin mikronaychalarni nishonga olib, ularning yig'ilishini va ma'lum yallig'lanish markerlarining ishlab chiqarilishini ingibirlaydi, shuningdek neytrofillar faoliyatiga ta'sir ko'rsatib, aterosklerotik pilakchalar shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin [42]. Shu sababli kolxitsin yurak ishemik kasalligi (YuIK), yurak ritmi buzilishlari (bo'lmachalar fibrillyatsiyasi), so'nggi yillarda esa yurak yetishmovchiligi va insult kabi holatlarni davolashdagi imkoniyatlari o'rganilmoqda.

2014 yilda Deftereos va hammualiflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda va 2024 yildagi COLICA tadqiqotida yurak yetishmovchiligi bilan og'rikan bemorlarda kolxitsinni qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan. Deftereos tadqiqotida kolxitsinning turg'un yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarning klinik holatiga ta'siri o'rganilgan [43]. Bu tadqiqotda kolxitsin terapiyasi bemorlar qon zardobidagi yallig'lanish markerlarini kamaytirgan bo'lsada, biroq bemorlarning NYHA bo'yicha funksional sinfiga, o'lim ko'rsatkichiga yoki gospitalizatsiyalar soniga ijobiy ta'sir ko'rsatmagan. COLICA tadqiqotida o'tkir dekompensatsiyalangan yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda kolxitsinning klinik samaradorligini baholangan [44]. Asosiy yakuniy nuqta — 8 haftadan so'ng NT-proBNP miqdorining pasayishi bo'lib, bu ko'rsatkich kolxitsin va platsebo guruhlar o'rtasida farq qilmagan. Kolxitsin qabul qilgan bemorlarda yallig'lanish markerlari, jumladan CRO va IL-6 miqdori kamaygan bo'lsada, ammo yurak yetishmovchiligining zo'rayishi yoki qayta dekompensatsiya holatlari bo'yicha guruhlar o'rtasida statistik farq aniqlanmagan.

Shunga qaramay yurak yetishmovchiligini davolashda kolxitsinning ta'sirini o'rganishga qaratilgan yangi tadqiqotlar olib borilmoqda. Xuan Sun va hammualiflarining 2022-yilda AHA jurnalida chop etilgan tadqiqotida eksperimental sichqonlar modelida doksorubitsin yordamida chaqirilgan DKMP ni davolashda kolxitsinning kuchli yallig'lanishga qarshi ta'siri ko'rsatilgan [45]. Ushbu ta'sir SIRT2 orqali amalga oshirilib, NLRP3 inflammasomasining faollashuvini susaytirish natijasida DKMP rivojlanishini sekinlashtirgan. Tadqiqotdan quyidagi natijalar olingan: - kolxitsin miokarddagi yallig'lanishni, neytrofillar infiltratsiyasini va yallig'lanish sitokinlari (IL-1, IL-6, O'NO- α) miqdorini kamaytirgan; - kolxitsin SIRT2 ni inaktivatsiya bo'lishdan himoya qilgan va shu orqali NLRP3 ni deatsetillab, uning faollashuvini cheklagan; - kolxitsin yurak faoliyatini yaxshilagan, miokard remodelanishining oldini olgan, vazn yo'qotish va doksorubitsin orqali chaqirilgan o'lim darajasini kamaytirgan. Tadqiqotchilarning xulosasiga ko'ra kolxitsin DKMP rivojlanishini sekinlashtirishda samarali natija ko'rsatgan bo'lib, uni yallig'lanish etiologiyali yurak yetishmovchiligini davolashda arzon, xavfsiz va istiqbolli vosita sifatida qo'llash imkoniyatini ilmiy asoslaydi.

Xulosa

Ko'plab ilmiy tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, etiologiyadan qat'iy nazar, yurak yetishmovchiligining rivojlanishi sitokinlar va yallig'lanish markyorlari induktsiyasi bilan bog'liq bo'lib, ular yurakning salbiy remodelanishi hamda sistolik va diastolik disfunktsiyasi patogenezigacha hissa qo'shishi mumkin. Bizning tadqiqotimizda ham DKMP bilan og'rikan bemorlarda SYuYe og'irlik darajasi bilan qon zardobidagi C-reaktiv oqsil va IL-6, O'NO- α kabi yallig'lanisholdi sitokinlari o'rtasida yaqqol musbat bog'liqlik borligi ko'rsatildi.

Olingan natijalar dilatatsion kardiomiopatiya bilan og'rikan bemorlarda yallig'lanisholdi sitokinlari (IL-6, O'NO- α) va CRO kasallik kechishining og'irlik darajasiga baxo berishda muhim ahamiyatga ega ekanligini, hamda kelgusida bunday guruh bemorlarda yurak yetishmovchiligini

davolashda qo'llanilayotgan optimal medikamentoz terapiya tarkibiga kolxitsin dori vositasini qo'shish istiqbolli ekanligini ko'rsatadi.

Mualliflarning hissalari

Konseptualizatsiya, Abdullaev T.A.; metodologiya, Rahmatov M.M.; dasturiy ta'minot, Rahmatov M.M.; tasdiqlash, Abdullaev T.A., rasmiy tahlil, Abdullaev T.A.; tadqiqot, Rahmatov M.M.; resurslar, Rahmatov M.M.; ma'lumotlarni kuratorlik qilish, Abdullaev T.A.; original matnni yozish, Rahmatov M.M.; yozish va tahrirlash, Rahmatov M.M., G'ulomov X.A.; vizualizatsiya, Rahmatov M.M., G'ulomov X.A.; rahbarlik, Abdullaev T.A.; loyiha boshqaruvi, Abdullaev T.A.; moliya jalb qilish, Abdullaev T.A.. Barcha mualliflar nashr qilingan qo'lyozma versiyasi bilan tanish va u bilan rozi.

Authors' contribution.

Conceptualization, T.A. Abdullaev; methodology, M.M. Rakhmatov; software, M.M. Rakhmatov; validation, T.A. Abdullaev; formal analysis, T.A. Abdullaev; investigation, M.M. Rakhmatov; resources, M.M. Rakhmatov; data curation, T.A. Abdullaev; writing—original draft preparation, M.M. Rakhmatov; writing—review and editing, M.M. Rakhmatov, Kh.A. G'ulomov; visualization, M.M. Rakhmatov, Kh.A. G'ulomov; supervision, T.A. Abdullaev; project administration, T.A. Abdullaev; funding acquisition, T.A. Abdullaev. All authors have read and agreed to the published version of the manuscript.

Moliyalashtirish

Ishga tashqi moliya ajratilmagan.

Funding source.

The study was not funded.

Etika tamoyillariga muvofiqlik

Tadqiqot Xelsinki Deklaratsiyasiga muvofiq o'tkazildi va Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan tasdiqlangan.

Ethics approval.

The study was conducted in accordance with the Declaration of Helsinki and was approved by the Republican Specialized Scientific-Practical Medical Center of Cardiology.

Nashrga xabardor qilingan rozilik.

Barcha tadqiqot ishtirokchilaridan xabardor qilingan rozilik olindi.

Consent for publication.

Informed consent was obtained from all study participants.

Ma'lumotlar mavjudligi to'g'risidagi bayonot

Taqdim etilgan barcha ma'lumot manbaalari adabiyotlar royxatida korsatilgan.

Data Availability Statement

All data sources used are listed in the references section.

Rahmatnomalar

Mualliflar ushbu ilmiy ishni amalga oshirishda yordam bergan Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Yurak yetishmovchiligi va miokard nokoronarogen kasalliklari laboratoriyasi xodimlariga chuqur minnatdorchilik bildiradilar.

Acknowledgments

The authors express their sincere gratitude to the staff of the Laboratory of Heart Failure and Non-Coronary Myocardial Diseases at the Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Cardiology for their valuable assistance in carrying out this research work.

Manfaatlar to'qnashuvi

Mualliflar o'zlarining manfaatlar to'qnashuvi yo'qligini e'lon qiladilar.

Conflict of interest

The authors declare that they have no conflict of interest

Qisqartmalar

DKMP	Dilatatsion kardiomiopatiya
GKMP	Gipertrofik kardiomiopatiya
RKMP	Restriktiv kardiomiopatiya
AO'QKMP	Aritmogen o'ng qorincha kardiomiopatiyasi
ChQNDKMP	Chap qorincha nodilatatsion kardiomiopatiyasi
SYuYe	Surunkali yurak yetishmovchiligi
ChQ	Chap qorincha
OF	Otish fraksiyasi
CRO	C-reaktiv oqsil
IL-6	Interleykin-6
O'NO- α	O'sma nekrozi omili- α
NUP	Natriyuretik peptid
YuIK	Yurak ishemik kasalligi

Adabiyot

- [1] Arbelo E, Protonotarios A, Gimeno JR, Arbustini E, Barriaes-Villa R, Basso C et al. ESC Scientific Document Group. 2023 ESC guidelines for the management of cardiomyopathies. *Eur Heart J* 2023; 44: 3503–3626.
- [2] Elliott P, Andersson B, Arbustini E. Classification of the cardiomyopathies: a position statement from the European Society of Cardiology working group on myocardial and pericardial diseases. *Eur Heart J* 2008; 29: 270–276.
- [3] Charron P, Arad M, Arbustini E, Basso C, Bilinska Z, Elliott P et al. ; European Society of Cardiology Working Group on Myocardial and Pericardial Diseases. Genetic counselling and testing in cardiomyopathies: a position statement of the European Society of Cardiology working group on myocardial and pericardial diseases. *Eur Heart J* 2010; 31: 2715–2726.
- [4] Rapezzi C, Arbustini E, Caforio AL, Charron P, Gimeno-Blanes J, Helio T et al. Diagnostic work-up in cardiomyopathies: bridging the gap between clinical phenotypes and final diagnosis. A position statement from the ESC working group on myocardial and pericardial diseases. *Eur Heart J* 2013; 34: 1448–1458.
- [5] Authors/Task Force members, Elliott PM, Anastakis A, Borger MA, Borggreve M, Cecchi F, Charron P et al. 2014 ESC guidelines on diagnosis and management of hypertrophic cardiomyopathy: the task force for the diagnosis and management of hypertrophic cardiomyopathy of the European Society of Cardiology (ESC). *Eur Heart J* 2014; 35: 2733–2779.
- [6] Pinto YM, Elliott PM, Arbustini E, Adler Y, Anastakis A, Böhm et al. Proposal for a revised definition of dilated cardiomyopathy, hypokinetic non-dilated cardiomyopathy, and its implications for clinical practice: a position statement of the ESC working group on myocardial and pericardial diseases. *Eur Heart J* 2016; 37: 1850–1858.
- [7] Garcia-Pavia P, Rapezzi C, Adler Y, Arad M, Basso C, Brucato A et al. Diagnosis and treatment of cardiac amyloidosis: a position statement of the ESC working group on myocardial and pericardial diseases. *Eur Heart J* 2021; 42: 1554–1568.
- [8] Arbustini E, Behr ER, Carrier L, van Duijn C, Evans P, Favalli V et al. Interpretation and actionability of genetic variants in cardiomyopathies: a position statement from the European Society of Cardiology Council on cardiovascular genomics. *Eur Heart J* 2022; 43: 1901–1916.
- [9] Weintraub RG, Semsarian C, Macdonald P. Dilated cardiomyopathy. *Lancet*. 2017;390(10092):400–414. [https://doi.org/10.1016/S0140-6736\(16\)31713-5](https://doi.org/10.1016/S0140-6736(16)31713-5).
- [10] Elliott P, Andersson B, Arbustini E, Bilinska Z, Cecchi F, Charron P, et al. Classification of the cardiomyopathies: a position statement from the European Society of Cardiology Working Group on Myocardial and Pericardial Diseases. *Eur Heart J* 2008; 29: 270–276.
- [11] Seferovic PM, Polovina M, Bauersachs J, Arad M, Ben Gal T, Lund LH, Felix SB. et al. Heart failure in cardiomyopathies: a position paper from the Heart Failure Association of the European Society of Cardiology. *Eur J Heart Fail*. 2019;21(5):553–576. <https://doi.org/10.1002/ehf.1461>.
- [12] AHA/ACC/HFSA Guideline for the Management of Heart Failure. *Circulation*. 2022;145(18):e895–e1032.
- [13] 2021 ESC Guidelines for the diagnosis and treatment of acute and chronic heart failure. Th.McDonagh, M. Metra. <https://doi.org/10.15829/1560-4071-2023-5168>.
- [14] Belenkov Yu.N., Nasonov E.L., Samsonov M.Yu., Ageev F.T., Mareev V.Yu. // *Heart Failure*. 2000. Vol. 4. pp. 135–138.
- [15] Dinarello C.A. // *Cytokine Growth Factor Reviews*. 1997. V. 8 (4). P. 253–265.

- [16] Dick SA, Epelman S. Chronic heart failure and inflammation: what do we really know? *Circ Res.* 2016;119:159–176. <https://doi.org/10.1161/CIRCRESAHA.116.308030>.
- [17] Trachtenberg BH, Hare JM. Inflammatory cardiomyopathic syndromes. *Circ Res.* 2017;121:803–818. <https://doi.org/10.1161/CIRCRESAHA.117.310221>.
- [18] Wilson HM, Cheyne L, Brown PAJ, Kerr K, Hannah A, Srinivasan J, Duniak N, Horgan G, Dawson DK. Characterization of the myocardial inflammatory response in acute stress-induced (Takotsubo) cardiomyopathy. *JACC Basic Transl Sci.* 2018;3:766–778. <https://doi.org/10.1016/j.jacbs.2018.08.006>.
- [19] Shao Y., Redfors B., Scharin Tang M., Mollmann H., Troidl C., Szardien S. et al. Novel rat model reveals important roles of -adrenoreceptors in stress-induced cardiomyopathy. *International Journal of Cardiology.* 2013; 168(3):1943-50. <https://doi.org/10.1016/j.ijcard.2012.02.092>.
- [20] Sachdeva J., Dai W., Kloner R.A. Functional and Histological Assessment of an Experimental Model of Takotsubo's Cardiomyopathy. *Journal of American Heart Association.* 2014;3(3):e000921. <https://doi.org/10.1161/JAHA.114.000921>.
- [21] Ishikura F., Takano Y., Ueyama T. Acute effects of beta-blocker with intrinsic sympathomimetic activity on stress-induced cardiac dysfunction in rats. *Journal of Cardiology.* 2012;60(6): 470-4. <https://doi.org/10.1016/j.jjcc.2012.07.004>.
- [22] Haggendal J., Johansson G., Jonsson L., Thoren-Tolling K. Effect of Propranolol on Myocardial Cell Necroses and Blood Levels of Catecholamines in Pigs Subjected to Stress. *Acta Pharmacologica et Toxicologica.* 2009;50(1): 58-66. <https://doi.org/10.1111/j.1600-0773.1982.tb00940.x>.
- [23] Kühl U, Noutsias M, Seeberg B, Schultheiss HP. Immunohistological evidence for a chronic intramyocardial inflammatory process in dilated cardiomyopathy. *Heart.* 1996;75:295–300.
- [24] Torre-Amione G, Kapadia S, Lee J, Durand JB, Bies RD, Young JB, Mann DL. Tumor necrosis factor- α and tumor necrosis factor receptors in the failing human heart. *Circulation.* 1996;93:704–711. <https://doi.org/10.1161/01.cir.93.4.704>.
- [25] Belenkov Yu.N., Ageev F.T., Mareev V.Yu. Neurohormones and cytokines in heart failure: a new theory of an old disease? *Journal Heart Failure*, 2000; 1(4), 35–38.
- [26] Dunlay SM, Weston SA, Redfield MM, Killian JM, Roger VL. Tumor necrosis factor- α and mortality in heart failure: a community study. *Circulation.* 2008;118:625–631. <https://doi.org/10.1161/CIRCULATIONAHA.107.759191>.
- [27] Dewald O, Ren G, Duerr GD, Zoerlein M, Klemm C, Gersch C, Tincey S, Michael LH, Entman ML, Frangogiannis NG. Of mice and dogs: species-specific differences in the inflammatory response following myocardial infarction. *Am J Pathol.* 2004;164:665–677. [https://doi.org/10.1016/S0002-9440\(10\)63154-9](https://doi.org/10.1016/S0002-9440(10)63154-9).
- [28] Shioi T, Matsumori A, Kihara Y, Inoko M, Ono K, Iwanaga Y, Yamada T, Iwasaki A, Matsushima K, Sasayama S. Increased expression of interleukin-1 β and monocyte chemoattractant and activating factor/monocyte chemoattractant protein-1 in the hypertrophied and failing heart with pressure overload. *Circ Res.* 1997;81:664–671. <https://doi.org/10.1161/01.res.81.5.664>.
- [29] Francis SE, Holden H, Holt CM, Duff GW. Interleukin-1 in myocardium and coronary arteries of patients with dilated cardiomyopathy. *J Mol Cell Cardiol.* 1998;30:215–223. <https://doi.org/10.1006/jmcc.1997.0592>.
- [30] Shioi T, Matsumori A, Kihara Y, Inoko M, Ono K, Iwanaga Y, Yamada T, Iwasaki A, Matsushima K, Sasayama S. Increased expression of interleukin-1 β and monocyte chemoattractant and activating factor/monocyte chemoattractant protein-1 in the hypertrophied and failing heart with pressure overload. *Circ Res.* 1997;81:664–671. <https://doi.org/10.1161/01.res.81.5.664>.
- [31] Suetomi T, Willeford A, Brand CS, Cho Y, Ross RS, Miyamoto S, Brown JH. Inflammation and NLRP3 inflammasome activation initiated in response to pressure overload by Ca(2+)/calmodulin-dependent protein kinase II δ signaling in cardiomyocytes are essential for adverse cardiac remodeling. *Circulation.* 2018;138:2530–2544. <https://doi.org/10.1161/CIRCULATIONAHA.118.034621>.
- [32] Kawaguchi M, Takahashi M, Hata T, Kashima Y, Usui F, Morimoto H, Izawa A, Takahashi Y, Masumoto J, Koyama J, Hongo M, Noda T, Nakayama J, Sagara J, Taniguchi S', Ikeda U. Inflammasome activation of cardiac fibroblasts is essential for myocardial ischemia/reperfusion injury. *Circulation.* 2011;123:594–604. <https://doi.org/10.1161/CIRCULATIONAHA.110.982777>.
- [33] Murphy SP, Kakkar R, McCarthy CP, Januzzi JL, Jr Inflammation in heart failure: JACC state-of-the-art review. *J Am Coll Cardiol.* 2020;75(11):1324–40. <https://doi.org/10.1016/j.jacc.2020.01.014>.
- [34] Liu S.J., Zhou W., Kennedy R.H. Suppression of beta-adrenergic responsiveness of L-type Ca²⁺ current by IL-1 β in rat ventricular myocytes. *Am J Physiol.* 1999; 276(1):H141-8. <https://doi.org/10.1152/ajpheart.1999.276.1.H141>.
- [35] Tatsumi T., Matoba S., Kawahara A. et al. Cytokine-induced nitric oxide production inhibits mitochondrial energy production and impairs contractile function in rat cardiac myocytes. *Pflugers Arch.* 2002; 35(5): 1338-46. [https://doi.org/10.1016/s0735-1097\(00\)00526-x](https://doi.org/10.1016/s0735-1097(00)00526-x).

- [36] Aleksova A., Beltrami A.P., Carriere C. et al. Interleukin-1 levels predict long-term mortality and need for heart transplantation in ambulatory patients affected by idiopathic dilated cardiomyopathy. *Oncotarget*. 2017; 8(15):25131-25140. <https://doi.org/10.18632/oncotarget.15349>.
- [37] Kubota T, Miyagishima M, Alvarez RJ, et al. Expression of proinflammatory cytokines in the failing human heart: comparison of recent-onset and end-stage congestive heart failure. *J Heart Lung Transplant*. 2000;19:819–824. [https://doi.org/10.1016/s1053-2498\(00\)00173-x](https://doi.org/10.1016/s1053-2498(00)00173-x).
- [38] Raymond RJ, Dehmer GJ, Theoharides TC, Deliargyris EN. Elevated interleukin-6 levels in patients with asymptomatic left ventricular systolic dysfunction. *Am Heart J*. 2001;141(3):435–8. <https://doi.org/10.1067/mhj.2001.113078>.
- [39] Vasan RS, Sullivan LM, Roubenoff R, Dinarello CA, Harris T, Benjamin EJ, et al. Inflammatory markers and risk of heart failure in elderly subjects without prior myocardial infarction: the Framingham Heart Study. *Circulation*. 2003;107(11):1486–91. <https://doi.org/10.1161/01.CIR.0000057810.48709.F6>.
- [40] Yamauchi-Takahara K, Ihara Y, Ogata A, Yoshizaki K, Azuma J, Kishimoto T. Hypoxic stress induces cardiac myocyte-derived interleukin-6. *Circulation*. 1995;91(5):1520–4. <https://doi.org/10.1161/01.CIR.91.5.1520>.
- [41] Pfisterer M, Buser P, Rickli H, Gutmann M, Erne P, Rickenbacher P, et al. BNP-guided vs symptom-guided heart failure therapy: the trial of intensified vs Standard Medical Therapy in Elderly patients with congestive heart failure (TIME-CHF) randomized trial. *JAMA*. 2009;301(4):383–92. <https://doi.org/10.1001/jama.2009.2>.
- [42] Imazio M, Nidorf M. Colchicine and the heart. *Eur Heart J*. 2021;42(28):2745-2760.
- [43] Deftereos C, Giannopoulos G, Panagopoulos V, Bouras G, Raisakis R, Koskinas K, et al. Anti-Inflammatory Treatment With Colchicine in Stable Chronic Heart Failure. *JACC Heart Fail*. 2014;2(2):131-137.
- [44] Pascual-Figal D, Núñez J, Pérez-Martínez MT, González-Juanatey JR, Taibo-Urquía M, Llácer-Borrá P, et al. Colchicine in acutely decompensated heart failure: the COLICA trial. *Eur Heart J*. 2024;45(45):4826-4836.
- [45] Xuan Sun et al., Colchicine Ameliorates Dilated Cardiomyopathy Via SIRT2-Mediated Suppression of NLRP3 Inflammasome Activation. *JAHA*, Volume 11, Number 13, <https://doi.org/10.1161/JAHA.122.025266>.

Nashriyot javobgar emas/ eslatmasi:

Barcha nashrlarda keltirilgan bayonotlar, fikrlar va ma'lumotlar faqat mualliflar va ishtirokchilarga tegishlidir, na Jurnal va na muharrirlar. Jurnal va muharrirlar, mazkur kontentda keltirilgan har qanday g'oyalar, usullar, ko'rsatmalar yoki mahsulotlar natijasida insonlar yoki mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar emas.

Disclaimer of liability/Publisher's Note: The statements, opinions and data contained in all publications belong exclusively to individuals. The authors and participants, and the Journal and the editors. The journal and the editors are not responsible for any damage caused to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products mentioned in the content.

Article

Толерантность к нагрузке и качество жизни у пациентов с хронической сердечной недостаточностью и ожирением

Н.Ф. Ташкенбаева *¹ 

¹ Отделение реабилитации, Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр кардиологии, Ташкент, 100052, Узбекистан
hryundik1@maril.ru (Н.Т.)

* Correspondence: hryundik1@maril.ru; Tel.: +998903230676 (Н.Т.)

Аннотация:

Цель. Оценить толерантность к физической нагрузке и качество жизни у пациентов с хронической сердечной недостаточностью (ХСН) и ожирением в зависимости от наличия метаболического синдрома (МС).

Материалы и методы. Обследованы пациенты с ожирением и ХСН (основная группа) и лица с ожирением без ХСН (контрольная группа), стратифицированные по наличию/отсутствию МС. Оценивали показатели тредмил-теста (продолжительность, максимальная нагрузка, VO_2 , хронотропный индекс, прирост ЧСС, САД на пике и его прирост), а также качество жизни по MLHFQ и SF-36.

Результаты. При МС отмечалось достоверное снижение продолжительности тредмил-теста, VO_2 , хронотропного индекса и прироста ЧСС при одновременном увеличении прироста САД. По MLHFQ фиксировались худшие показатели физического и эмоционального функционирования, более высокий общий балл. По SF-36 выявлено снижение физического функционирования и общего состояния здоровья.

Заключение. Наличие МС у пациентов с ХСН и ожирением сопровождается снижением толерантности к нагрузке и ухудшением качества жизни, что обосновывает необходимость комплексной кардиометаболической реабилитации.

Ключевые слова: Хроническая сердечная недостаточность, ожирение, метаболический синдром, толерантность к нагрузке, качество жизни, SF-36, MLHFQ.

Цитирование: Н.Ф. Ташкенбаева. Толерантность к нагрузке и качество жизни у пациентов с хронической сердечной недостаточностью и ожирением. 2025, 2,4, 7.
<https://doi.org/10.70626/cardiouz-2025-2-00066>

Полученный: 10.10.2025

Исправленный: 18.10.2025

Принято: 25.11.2025

Опубликованный: 10.12.2025

Copyright: © 2025 by the authors. Submitted to for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

Exercise tolerance and quality of life in patients with chronic heart failure and obesity

Nargiza. F.Tashkenbaeva *¹ 

¹ Department of Rehabilitation, Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Cardiology, Tashkent, 100052, Uzbekistan
hryundik1@maril.ru (N.T.)

Abstract:

Aim. To assess exercise tolerance and quality of life in patients with heart failure (HF) and obesity depending on the presence or absence of metabolic syndrome (MS).

Materials and methods. Patients with obesity and HF (main group) and obese individuals without HF (control group) were stratified according to the presence/absence of MS. Treadmill test parameters (duration, maximal workload, VO_2 , chronotropic index, HR increase, peak SBP and its increase) and quality of life were evaluated using the MLHFQ and SF-36 questionnaires.

Results. Patients with MS demonstrated significantly lower treadmill duration, VO_2 , chronotropic index, and HR increase, while the increase in SBP was higher. Physical and emotional functioning scores on the MLHFQ were worse, and the total score was higher. On the SF-36, physical functioning and general health were decreased.

Conclusion. The presence of MS in patients with HF and obesity is associated with reduced exercise tolerance and impaired quality of life, supporting the need for comprehensive cardiometabolic rehabilitation.

Keywords: chronic heart failure, obesity, metabolic syndrome, exercise tolerance, quality of life, SF-36, MLHFQ.

Введение

